

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI**

**FRANSUZ TILI
GRAMMATIKASI**

USLUBIY QO'LLANMA

NAVOIY-2022

Mazkur slubiy qo'llanmada bakalavr ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun og'zaki nutqini o'stirishga qaratilgan didaktik manbalar mujassamlashgan. Jumladan mazkur qo'llanmadan fransuz tilini mustaqil o'rganuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

To'ldirilgan ikkinchi nashri. Mazkur manba qayta nashr etish uchun keying o'zgarishlar bilan toldirildi. O'zbek va chet tillar kafedrasida bayonnoma № 5. 12 yanvar 2022 yil.

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining № 003368 raqami bilan ro'xatga olingan Sertificati asosida chop etildi.

Tuzuvchi:
Taqrizchilar

dots M.Ravshanov
dots. F.Najmiddinov
dots. I.Ergashev

SO'Z BOSHI

Mazkur qo'llanma fransuz tili grammatikasidan qisqacha ma'lumotnoma fransuz tilini mustaqil o'rganuvchilar, kollej talabalari hamda oliy ta'limning barcha bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

Qo'llanmaning yaratilishidan asosiy maqsad talabalarning o'rta maktabda olgan bilimlarini niklash va birmuncha chuqurlashtirish, og'zaki hamda yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Suning uchun ham qo'llanmaning morfologiya qismi batafsilroq yoritildi.

Ushbu ma'lumotnoma tuzilishiga ko'ra morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'z ichiga oladi. Bu bo'limlarda asosiy e'tibor grammatik shakllar, so'z turkumlarining grammatik belgilari va ularning yasalish usullari, gapning tuzilishi, gap bo'laklari va qo'shma gap turlariga qaratilgandir.

Qo'llanmadagi barcha grammatik qoidalar tarjimasi bilan berilgan misollar va jadvallar bilan ta'minlangan.

Bu kabi ma'lumotnoma o'zbek tilida kam yaratilgani tufayli, unda ba'zi kamchiliklar uchrashi tabiiydir. Shuning uchun ham mullif ma'lumotnoma haqida o'z fikr va mulohazalarini bayon qilganlarga oldindan o'z minnatdorchligini bildiradi.

KIRISH

Grammatika tilshunoslik fanining bir bo'lagi bo'lib, u tilning grammatik qurilishi haqidagi ta'limotdir. Grammatika so'zlarning o'zgarishi, birikishi, shakllari, so'z kategoriyalariyalari, so'z birikmasi va gap hosil qilishdagi xususiyatlarini tekshiradi.

Grammatika so'z turkumlari va gap bo'laklari haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham amaliy grammatika o'zaro bog'langan ikki bo'lim: morfologiya va sintaksisdan iborat.

Morfologiya yunoncha morphe – shakl va logos – so'z, ta'limot demakdir. U so'zning grammatik tuzilishi haqidagi ta'limot bo'lib, unda so'zlarning grammatik o'zgarishi, morfologik tarkibi, ularning yasalishi va so'z turkumlari o'rganiladi.

Morfologiya va sintaksis bir-biri bilan uzviy bo'lgan bo'lib, til grammatik qurilishining yaxlit sistemasini tashkil etadi. Morfologik va sintaktik hodisalar o'zaro munosabatda bo'lgan yagona, bir butun sistemadan iboratdir.

Morfologiya so'zning morfologik strukturasi, morfemalar (tilning eng kichik ma'noli birliklari), so'z turkumlari va morfologik kategoriyalarni o'rganadi. So'z mustahkamlikka ega bo'lgan ma'no va emotsiyalarni bildiradigan, fonetik va grammatik jihatdan tugallikka ega bo'lgan til birlikgidir.

So'zning strukturasi leksik va grammatik ma'nolar bir butunni tashkil etadi. So'zning leksik ma'nosi o'zak-negiz orqali ifodalanadi, u predmet, belgi kabi tushunchalarni reallashtiradi.

Masalan: „Nous parlons francais“ gapida rarl- leksik ma'noni, - ons qo'shimchasi esa grammatik ma'noni ifoda etadi.

Grammatik ma'noning ifodalash yo'llari grammatik vositalar orqali amalga oshiriladi. Affikslar, predloglar, artikllar va boshqa yordamchi so'zlar grammatik ma'noni ifoda etuvchi vositalardir.

Grammatik kategoriya so'zga xos bo'lgan, umumlashgan ma'nolar bo'lib, grammatik ma'no bu umumiy ma'nolar xususiy ko'rinishidir.

Har bir so'z turkumi o'ziga xos grammatik kategoriyalarga ega: otlarda – son va rod, aniqlik, noaniqlik: fe'llarda – zamon, shaxs-son, daraja va mayl kategoriyalari

va boshqalar. So'zlarning katta-katta guruhlarga, turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l)ga bo'linishining o'zi ham grammatik kategoriyni tashkil etadi.

Sintaksis yunoncha – syntaxis – tuzish demakdir. Bu bo'limda so'zlarning birikishi, gap va uning bo'laklari, turlari haqida fikr yuritiladi.

Sintaksis o'ziga xos grammatik kategoriyalarga ega. Chunonchi, gap va uning turlari so'z birikmalari, gap bo'laklari sintaktik kategoriyalarni tashkil etadi.

Gap haqidagi ta'limot sintaksisning asosidir. So'z birikmasi ham gapning asosiy vositasi bo'lganligi sababli shu bo'limda o'rganiladi. Gapda so'zlar bir-biri bilan bog'langan bo'lib, bu bog'lanish ma'lum qonun-qoidalarga bo'sunadi.

Har bir so'z birikmasi kamida ikki so'zdan iborat bo'lib, o'zaro semantik va grammatik jihatdan bog'langan bo'ladi. So'z birikmasi tarkibida o'zaro bog'lanib kelyotgan har bir so'z mustaqil tushuncha anglatadi va alohida gap bo'lagi vazifasida qo'llanadi.

Mazkur qo'llanmaning tuzilishida so'z birikmasi ta'limoti alohida o'rganilmagan bo'lsa-da, ularning turlari qisman yoritilgan.

Ushbu qo'llanmaning sintaksis qismida asosan gap va uning turlari, gap bo'laklari e'tiborga olinib, fransuz tilining grammatik tizimiga xos bo'lgan xususiyatlar o'rganiladi.

Gap fikr bildirish, xabar berish vazifasini bajaradi. Gap bir so'z yoki bir necha so'zlar yigindisidan iborat bo'lib, turli his-tuyg'ularni ifodalaydi va grammatik jihatdan shakllangan bo'lib, intonatsion tugallikka ega bo'ladi. Gapdagi so'zlar o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'ladi va gapda biror sintaktik funksiyani bajaradi, ya'ni gap bo'lagi vazifasini o'taydi. Gap bo'laklari ikki xil: bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat bo'ladi.

Bosh bo'laklar (ega va kesim) gapning asosini tashkil etadi va gapning eng asosiy belgisi predikativlikni ifodalaydi.

Sintaksis so'zlovchining maqsadiga ko'ra gapning uch turini o'rganadi: darak gap, so'roq gap va buyruq gap.

Mazkur bo'limda: bog'langan qo'shma gaplar, ergash gapli qo'shma gaplar va bog'lovchiz qo'shma gaplar o'rganiladi.

Morfologiya

Soʻz turkumlari (Les parties du discours)

Ot (Le nom yoki Le substantif)

Predmetning nomini bildiradigan soʻz turkumi ot deyiladi. Otlar jonli (Homme, chien), jonsiz predmetlar (chaise, depart), xususiyat va belgi (vivacite, grandeur) nomlarini bildiradi.

Otning tuzilishiga koʻra turlari.

Fransuz tilida otning quyidagi turlari mavjud :

Ot

Sodda yasama qoʻshma

1) sodda (simple) : le fer-temir, la table –stol ;

2) yasama (derives) :

a) negiz+suffiks : (tigre+esse) tigresse-yoʻlbars;

b) prefiks+negiz: (con+frere) confrere-hamkasb; compatriote – vatandosh;

3)qoʻshma (compose):

a)ot+ot: un wagon-lit-uxlab ketiladigan vagon; un chou-fleur- gul karam;

b)ot+predlog+ot : une pomme de terre – kartoshka, un chef-d’oeuvre – shoh asar, un arc-en ciel –kamalak ;

c) sifat+ot : un grand-pere-bobo, un basse – cour-qushlar maskani ;

d) feʻl+ot : un essuie-mains – sochiq ; unporte-voix- karnay, rupor ;

e) predlog yoki ravish+ot : un contre-ordre- buyruqning bekor etilishi ; un avan-prppos- soʻz boshi ;

f) feʻl+ ravish : un couvre-lit- choyshab ; unpasse-partout- ochqich.

Maʼnosiga va grammatik shakliga koʻra otlar ikki turga boʻlinadi : atoqli va turdosh otlar.

Ot

Atoqli ot

turdosh ot

Sanaladigan va sanalmaydigan

1. Shaxs va geografik nomlar, yakka predmet nomlari atoqli otlar hisoblanadi: Marie, l'Ouzbekistan, la France.

2. Saxslarning umymlashgan nomi, bir jinsdagi predmetlar va mavhum tushunchalarning nomlari turdosh ot hisoblanadi:

l'homme –odam; la riviere-daryo; la porte-eshik; la claret- yorug'lik.

Turdosh otlar sanaladigan va sanalmaydigan otlarga bo'linadi : a) sanaladigan otlar birlik va ko'plikda qo'llanadi.

Une chaise – des chaises stul-stullar ; un crayon – des crayons qalam-qalamlar..

b) sanalmaydigan otlar narsa nomlari va mavhum tushunchalar nomlarini o'z ichiga oladi. Bu turdagi otlar faqat birlikda ishlatiladi :

le sucre-qand; la patience – sabr-toqat; l'eau –suv; le courage – mardlik, jasorat.

Otlarning grammatik kategoriyasi

Hozirgi zamon fransiz tilida otlarning ikkita grammatik kategoriyasi : rod va son kategoriyalari mavjud.

Otlarda rod kategoriyasi

Grammatik rod xususiyatiga ko'ra barcha otlar mujskoy roddagi (le genre maskulin) va jenskiy roddagi (le genre feminin) otlarga bo'linadi.

Otlarda jenskiy rodning yasalishi

Otlarning jenskiy rod formasi mujskoy roddagi otga o'qilmaydigan e qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Bunda :

a) e qo'shimchasi faqat grafik belgi bo'lib, otning talaffuziga ta'sir etmaydi :

un ami – une amie do'st- dugona

b) e qoʻshimchasi oʻtini faqat grafik jihatdan emas, balki fonetik jihatdan ham oʻzgartiradi :

un laureat- une laureate laureat-laureat ayol

un etudiant – une etudiante talaba – talaba qiz

Odam va hayvon nomlarini bildiradigan koʻpgina otlarning mujskoy va jenskiy rod formalari, mazkur shaxs va hayvon jinsiga bogʻli ravishda, turlichadir.

Mujskoy va jenskiy rodning mavjudligi har xil soʻzlar bilan ifoda etiladi :

L'oncle – amaki, togʻa la tante – amma, xola

Le pere – ota la mere – ona

Le coq – xoʻroz la poule – tovuq.

Mujskoy roddagi otning –er, ier qoʻshimchalari jenskiy rodda –ere, iere tarzida boʻladi :

Un etranger – une etrangere

Un boulanger – une boulangere

Un ouvrier – une ouvriere

Mujskoy rodda –n yoki – t undoshi bilan tugallangan koʻpgina otlar jenskiy rodga aylanganda bu undoshlar ikkilantiriladi :

Un chat – une chatte

Un pysan – une paysanne

Un lion – une lionne

Eslatma : -in, -ain va –an harf birikmalari bilan tugallangan koʻpgina otlarda n ikkilantirilmaydi :

Un voisin – une voisine

Un Roumain – une Roumaine.

Mujskoy rodda –eur qoʻshimchasi bilan tugallangan otlar jenskiy rodga aylantirilganda –euse qoʻshinchasini qabul qiladi :

Un vandeur – une vavdeuse

Un acheteur – ne acheteuse

Mujskoy roddagi – teur qoshimchasi jenskiy rod –trice qo'shimchasiga o'zgaradi :

Un acteur – une actrice

Un directeur – une directrice

Un traducteur – une traductrice.

Mujskoy rod –e qo'shimchasi bilan tugallangan otlar jenskiy rod –esse qo'shimchasini qabul qiladi :

Un tigre – une tigresse

Un maitre – une maitresse.

Mashg'ulot turi va kasb bildiradigan ba'zi otlarning yagona mujskoy rod formasi mavjud :

Un peintre – rassom, rassom ayol

Un ecrivain – yozuvchi

Un auteur – muallif

Un compositeur – kompozitor

Un architecte – me'mor

Un historien – tarixchi

Un ingénieur – injener

Un juge – sudya

Aniqlik kiritish uchun ba'zida femme so'zi qo'shib ishlatiladi :

Une femme ecrivain – yozuvchi ayol :

Une femme medecin – vrach ayol.

Hayvonlar nomini bildirib, maxsus mujskoy va jenskiy rod formalari bo'lmagan otlarga male (erkak) yoki femelle (urg'chi) so'zlari qo'shib ishlatiladi :

Un souris male – erkak sichqon ;

Une souris femelle – urgochi sichqon.

Otlarning rodini talaffuz etilishi yoki imlosiga ko'ra aniqlash qiyin.

Otlarning rod kategoriyasi ba'zan artikl yoki uning o'rnida ishlatiladigan determinativlar va maxsus suffikslar bilan ifoda etiladi. Jenskiy rodga xos bo'lgan suffikslar quyidagilardan iborat :

- tion – la condition
- te – la nette
- esse – la tristesse va hokazolar.

Mujskoy roddagi tlar esa ko'pincha – ment, -age qo'shimchasi bilan keladi : le mouvement, le village, le passage.

Ba'zi otlar har ikkala rodga ham masub bo'lib, ular faqat ma'no jihatdangina farq qiladi. Bunda otning ma'nosi artikl orqali aniqlanadi :

Mujskoy rod	jenskiy rod
Un manche – dasta	une manche – yeng (kiyimda)
Un voile – choyshab	une voile – yelkan
Le vapeur – paraxod	la vapeur – bug'
Le vase – vaza (idish)	la vase – loyqa, balchiq
Le memoire – ilmiy asar	la memoire – xotira

Lug'atlarda otlarning rodi m(masculin), f(feminin) harflari orqali ifodalanadi :
Veston m –nimcha ; ecole f – maktab

Otlarda son kategoriyasi (Categorie du nombre)

Otlarga xos bo'lgan grammatik xususiyatlardan biri son kategoriyasidir. Grammatik miqdor ma'nosini ifdalovchi formalar sistemasi son kategoriyasi deyiladi. Son kategoriyasi predmet va hodisalar bir- biriga qarama-qarshi qo'yiladi va birlik (le singuller) hamda ko'plik (le pluriel) formalari orqali ifodalanadi.

Sanaladigan predmetlarni bildirgan otlar, odatda birlik va ko'plik formalarda bo'ladi :

Un enfant – des enfants	bola-bolalar
Un cheval – des chevaux	ot-otlar
Une idee – des idees	fikr-fikrlar

Sanalmaydigan predmetlar nomlarini bildirgan otlar faqat birlik formada qo'llanadi :

Le sucre – qand

La patience – qanoat

L'honneur- shon-sharaf

La curiosite – qiziquvchanlik

Eslatma : bunday otlar sanaladigan otlar turkumiga o'tganda, ya'ni transpozitsiya natijasida ko'plikda qo'llanadi :

Les honneurs – hurmat, ehtirom ;

Les curiosites – diqqatga sazovor joylar

Ba'zi otlar faqat ko'plikda qo'llanadi :

Les archives, les annals, les alentours, les broussailles, les tenebres.

Otlar ko'plik shaklining yasalishi

1. otlarning ko'plik formasi odatda birlikdagi otga s harfi qo'shish bilan yasaladi :

un etudiant – des etudiants talaba – talabalar

un livre – des livres kitob-kitoblar

un enfant – des enfants bola – bolalar

2. Birlikda –s, -x, -z harflari bilan tugagan otlar ko'plikda o'zgarmaydi. Bu holda otlarning ko'plik formasi artikl orqali ifodalanadi :

Le pays – les pays mamlakat – mamlakatlar ;

Le noix – les noix yong'oq – yong'oqlar ;

Le nez – les nez burun – burunlar

3. Birlikda –au, -eau, -eu harflari bilan tugallangan otlarning ko'pligi x harfi qo'shish bilan yasaladi :

le tuyau – les tuyaux truba-trubalar ;

le bateau – les bateaux – qayiq – qayiqalar ;

le feu – les feux yong'im-yong'imlar.

4. Birlik sondagi –al, -ail qo'shimchalari ko'plik sonda – aux ga aynadi :

le journal – des journaux gazeta – gazetalar ;

le travail – les travaux ish- ishlar ;

le cheval – les chevaux ot-otlar.

Quyidagi otlar bu qoidadan mustasnodir :

Le bal -les bals;

Le carnaval – les carnivals ;

Le chacal – les chacals ;

Le regal – les regals ;

Le festival – les festivals.

5. –ou harf birikmasi bilan tugallangan quyidagi otlarning ko'plik formasi x qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi :

le bijou – les bijoux ;

le chou – les choux ;

le caillon – les cailloux ;

le genou – les genoux ;

le hibou – les hiboux ;

le joujou – les joujoux ;

le pou - les poux.

6. Ba'zi otlar ko'plikda maxsus formaga ega bo'ladi ;

l'oeil – les yeux ko'z – ko'zlar

le ciel – les cieux samo – samolar

l'aieul – les aieux avlod – avlodlar

Eslatma : Ayrim otlar ko'pligining ikki xil formasi mavjud :

Ciel-ciels – cieux ;

Aieul- aieuls – aieux.

7. Faqat ko'plikda qo'llanadigan otlar ham mavjud ;

les funeraïlles – ko'mish, dafn etish

les archives- arxiv ;

les moeurs – urf-odat ;

les environs – tevarac, atrof ;

les decombres –axlat ;

les frais – chiqim, xarajat.

8. Ayrim otlarning ko'plikdagi ma'nosi o'zgaradi :

le ciseau – kesish asbobi - les ciseaux – qaychi

le defanse – mudofaa – les defenses – oziq tish

le fer – temir les fers – kishan

le gage –garov les gages – maosh, moyana

la letre – harf, xat les lettres – adabiyot.

9. Quyidagi otlarning ko'plik formasidagi talaffuzi birlik formasidan farq qiladi :

le boeuf – buqa - les boeufs (le bo') –buqalar

l'oeuf -tuxum les oeufs (lez o') –tuxumlar

Qo'shma otlarning ko'plik formasi

1. ot + sifat (N + adj.); ot + ot (N+N).

Har ikkala so'z ham ko'plikda ishlatiladi:

Une basse-cour – des basses – cours

Un wagon – restaurant – des wagons-restaurants.

2. Predlog yordamida birikkan ikki otning faqat biinchisi ko'plik sonda qo'llanadi :

N+de +N

Une pomme de terre – des pommes de terre – kartoshka – kartoshkalar ;

Un chemin de fer – des chemins de fer.

3.Qo'shma otlar fe'l bilan ot yoki ravish (predlog) bilan otdan yasalgan bo'lsa, ko'plik qo'shimchasi otga qo'shiladi :

un portemanteau – des portemanteaux ;

un contre – ordre – des contre- ordres ;

un avant-poste – des avant – postes.

Eslatma:

1.Lotin va grek tillaridan o'zlashtirilgan qo'shma ot elementlari o'zgarmaydi;

Les gallo-romains ;

Des electro –almantss ;

Des tragicomedies.

2. grand sifati jenskiy roddagi une grand-mere so'zining ko'plik formasida o'zgarmaydi :

une grand – mere – des gran-meres.

Bundan tashqari fe'l bilan ravish (V+adv) va fe'l bilan fe'ldan (V+V) tuzilgan qo'shma otlar ko'plikda o'zgarmaydi :

Un passe-partout – des passe-partout

Un laissez-passer – des laissez-passer

Atoqli otlarning ko'plik formasi

Kishilar familiyasini bildirgan atoqli otlar ko'plikda o'zgarmaydi : Les Tibault, Les Curie. Ammo ularga quyidagi hollarda s qo'shimchasi qo'shiladi :

1. Qadimiy qirollar sulolasining a'zosi haqida gap borganda :

les bourbons, Les Guises etc.

2. Atoqli ot turdosh otga aylanganida :

Les Pasteurs sont rares.

Eslatma ; rtikl bilan birga kelgan atoqli ot ko'plikda s qo'shimchasini olmaydi :

Les Balzac, les Flaubert, les Zola sont la gloire de roman au XIX siecle.

Mamlakat nomlarini bildiradigan otlarning rodi

E harfi bilan tugallangan mamlakat nomlarining barchasi jenskiy rodga taalluqlidir:

La France, la Turquie, la Belgique, l'Islande, l'inde etc.

Mustasno : Le Mexique.

Boshqa qo'shimchalar bilan tugallangan qolgan barcha mamlakatlarning nomlari mujskoy rodga mansub :

Le Pakistan, le Japon, le Canada, L'Israel etc.

En, au – predloglari

En predlogi a) jenskiy rod birlikdagi mamlakat nomi oldida qo'llanadi : Je vais en Angleterre (f).

b) unli bilan boshlangan birlik formadagi otdan oldin qo'llanadi : en Iran (m), en Amerique, en Armenie etc.

Boshqa mamlakat nomlari oldida au predlogi qo'llanadi :

J'ai ete au Japon, aux Etats-Unis.

O'zlashtirilgan otlar ko'plik formasining yasalishi

Lotin va grek tillaridan o'zlashtirilgan ayrim otlarning ko'plik formasi s qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: des concerts, des albums, des operas, des specimens, des agendas, des alibis.

Boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlarning ko'plik formasi o'sha til qonuniga ko'ra yasaladi: des gentlemen, des carbonari, des errata, des maxima.

Otlarning sintaktik funksiyasi

Otlar gapda quyidagi funksiyalarni bajara oladi:

- 1.Ega. Mon frere vient.
- 2.Kesimning ot qismi. Karime est etudiant.
3. Vositasiz to'ldiruvchi . Tu regardes le tableau.
4. Vositali to'ldiruvchi. Je pense a mon frere.
5. Hol. Chaque jour je vais a l'institut.
6. Izohlovchi. Nazira, ma soeur, est etudiante.

Artikl (Article)

Artikl yordamchi so'z bo'lib, bevosita ot oldida keladi va otning rodi, soni hamda aniq va noaniqligini bildiradi.

Fransuz tilida artiklning uch turi mavjud : noaniq, aniq, va partitiv.

Noaniq artikl (Article indefini)

Noaniq artikl uc xil formaga ega : un, une, des. Demak, un –mujskoy rod uchun, une –jenskiy rod uchun, des – ko’plik otlai oldida qo’llanadi.

Noaniq artikl quyidagi hollarda qo’llanadi ;

1) bir jinsdagi predmetlardan biri tanlanganda yoki nutqda birinchi marta biror (jonli yoki jonsiz) predmetni bildiradigan ot tilga olinsa, noaniq artikl o’sha otdan oldin keladi :

Passez-moi une gomme.- Menga o’chirgich bering.

Nous avons appercu qu,un homme est entre dans la salle. Xonaga qandaydir kishi kirib kelganini sezib qoldik.

Une voiture s’est arretee devant la porte- Qandaydir mashina eshik oldida to’xtadi.

2) ma’lum bir guruhdagi predmetlardan birortasi (har qanday)ni bildirgan otdan oldin keladi. Bu holda noaniq artikl « har bir », « har qaysi » ma’nolarini bildiradi.

Un honnete homme est respect. Har bir sofdil odam hurmatga sazovordir.

Un soldat doit etre courageux – Harbir soldat matonatli bo’lmog’i kerak.

3) avloddosh va turdoshlik tushunchasini bildirgan otlardan oldin :

le chat est un animal domestique – Mushuk uy hayvoni.

Le chat est un animal domestique. Mushuk uy hayvonn.

Le pommier est un arbre fruitier – Olma mevali daraxt.

4) Mavhum otdan oldin sifat, to’ldiruvchi yoki aniqlovchi ergash gap kelsa, noaniq artikl bilan ishlatiladi :

Ce garcon a un bon caractere - -Bu bolaning fe’l atvori yaxshi.

C’est un travail qui exige de la patience – Bu sabr-toqat talab etadigan ish.

Il entendit un bruit de pas – U oyoq tovushini eshitdi.

Aniq artikl

Fransuz tilida aniq artiklning uchta formasi mavjud : le, la, les

Le garçon – les garçons – bola – bolalar ;

La femme – les femmes – ayol- ayollar.

Mujskoy rod otlari oldidan qo'yiladi. Le- le travail, l' – l'arbre.

Jenskiy rod otlari oldidan qo'yiladi la la pomme, l' – l'etudiante

Har ikkala rod uchun « les » artikli qo'yiladi. Les travaux. Unli yoki o'qilmaydigan h bilan boshlangan otdan oldin le, la aniq artikllaridagi unli tushib qoladi. Unli o'rniga (') apostrof belgisi qo'yiladi : l'arbre, l'homme, l'ere, l'habitude.

Aniq artiklning qo'llanishi.

Aniq artikl quyidagi hollarda ishlatiladi :

1. Bir turkumga oid turdoshlik yoki avloddoshlik tushunchasini anglatuvchi otlarning turini bildiradigan otlardan oldin:

Le cheval est un animal domestique.

La paresse est la mere de tous les vices.

Le lion est le roi des animaux.

2. Birinchi marta aytilayotgan bevosita aniq shaxs yoki predmetni anglatadi :

Il regarde la jeune femme, qui est entree dans la salle. –U xonaga kirib kelgan yosh ayolga qaradi.

3.Oldin bir marta nomi aytilgan predmetni bildiradi :

Un home est entre dans la sale. – Xonaga bir kishi kirib keldi.

L'homme avait un portefeuille dans la main. –U kishining qo'lida portfel bor edi.

4.Ma'lum sharoitda yagona predmet yoki shaxsni bildiradi :

C'est la table. C'est le professeur.

La maison est pres du magasin.

5.Sifatlarning orttirma daraja formasidan oldin keladi :

Akbar est le plus intelligent et gentil de tous les etudiants.

6. Moddalarning to'la hajmini anglatadigan sanalmaydigan otlardan oldin :

Le bois est plus leger que l'eau.- Yog'och suvdan yengil.

Mon frere aime la musique.- Akam muzikani sevadi.

La neige est blanche. Qor oq bo'ladi.

7. Okean, dengiz, daryo, tog' tizmalari, mamlakatlar, orollar, gazeta nomlari oldida :

L'Ocean Atlantique – Atlantika okeani

La Mediterranee – O'rta yer dengizi.

La Seine - Sena (daryo)

Les Alpes - Alp (tog')

La Corse - Korsika (orol).

Tutash artikl (Article contracte)

Mujskoy rod birlikdagi le aniq artikldan va ko'plik formadagi les artiklidan oldin a yoki de predlgi qo'llansa, le va les artikllari bu predloglar bilan birikadi. Predlog bilan biikkan artikl tutash artikl (article contracte) deyiladi.

Tutash artiklning shakllari :

Mujskoy rod birlik.

De +le = du Le livre du maitre – O'qituvchining kitobi.

A+ le = au Je reponds au maitre – Men o'qituvchiga javob beryapman..

Ko'plik

De + les=des. Les cahier des etudiants- Talabalarning daftarlari.

A +les =aux Il pensent aux vacances. Ular kanikul (ta'til) haqida o'ylashayapti

Partitiv artikl (Article partitif)

Bu artikl forma jihatidan predlog bilan qo'llangan birlik sondagi tutash artiklga o'xshaydi : du, de la, de l'.

Aniq va noaniq artikllar sanaladigan predmetlarni bildiruvchi otlarga taalluqli, partitiv artikl esa sanalmaydigan predmetni bildiruvchi otlarga aloqador bo'lib,

butunning bir bo'lagini anglatadi. Sanalmaydigan otlarning ko'plik formasi bo'lmagani uchun partitiv artiklning ham ko'plik formasi bo'lmaydi.

Partitiv artiklning qo'llanilishi

1. Modda nomlarini bildiradigan- sanalmaydigan ot oldida noma'lum miqdorni anglatish uchun ishlatiladi. Le matin je mange du pain avec du beurre. Ertalab men non bilan yog' yeyman.

2. Mavhum tushuncha bildiradigan ot oldida ishlatiladi :

Cet artiste a du talent. Bu iste'dodli artist.

Le professeur a de la patience – bu sabr- toqatli o'qituvchi.

3. faire va avoir fe'llari bilan kelgan egasiz gaplarning tarkibiy qismini tashkil etadi. Bunday gaplar ko'pincha tabiat hodisalarini bayon etadi :

Il fait du brouillar – Tuman bo'lib turibdi.

Il fait du vent – Shamol esyapti.

Il y a de la pluie – Yomg'ir yog'yapti.

4. Partitiv artikl faire fe'li bilan qo'llanib, mashg'ulotni bildiradi :

Pierre fait du ski – Pyotr chang'ida uchyapti.

Marie fait du piano – Mariya pianino chalyapti.

Cet homme fait de la politique – Bu kishi siyosat bilan shug'ullanadi.

5. Mavhum ma'noda partitiv artikl avoir fe'li bilan qo'llanadi :

Ce soldat a du courage – Bu jasur soldat.

Le professeur a de la patience – Sabr – toqatli o'qituvchi.

6. Partitiv artikl turlicha fe'lli birikmalarda uchraydi :

Mettre de l'ordre – tartib o'rnatmoq ;

Faire du bruit – shovqin qilmoq ;

Voir du pays – safarga chiqmoq.

Artiklning qo'llanmaslik hollari.

Quyidgi hollarda artikl qo'llanmaydi:

1) ot kasb va millatni anglatib kelganda:

Il est americain. Sa mere est professeur. Son pere est ouvrier.

2) izohlovchi otdan oldin :

Son fre, professeur de francais, habite Mosco.

3) en predlogidan keyin :

en Amerique – Amerikada, en ete – yozda.

4) Ikki otdan iborat iboralarda predlogdan keyin:

un chemin de fer, une tasse a cafe.

5) predlogli iboralarda :

avec plaisir, sans peine, de force.

6) oy, hafta kunlari nomi oldida :

C'est la premiere semaine de mai – Mayning birinchi haftasi.

7) shaxs, shahar nomlarini bildiradigan atoqli ot oldida :

Pierre, Paris, Moscou, Nazira.

8) kitoblar nomlarida : Grammaire francais.

9) Murojaatdan oldin :

Camarades, soyez prudents !

10) otdan oldin determinativ va sonlar kelganida :

Ces

Vos etudiants ecrivent la dictee.

Dix

Predloglardan keyin artiklning qo'llanmaslik hollari

1. Miqdor bildiradigan so'zdan keyin kelib, o'zidan keyin artikl talab etadigan otdan oldin artikl qo'llanmaydi. Bu turdagi so'zlarga quyidagilar kiradi :

a) o'lchov, miqdor bildiradigan otlar :

un litre – litr; une bouteille- shisha; une foule-olomon, to'da; un tas – to'p, dasta, o'ram;

un litre de lait- bir litr sut

une bouteille d'eau – bir shisha suv ;

une foule de gens – odamlar to'dasi ;

un tas de fleurs – bir dasta gul.

Une foule de gens se pressaient devant l'entree.

b) miqdor bildiruvchi ravishlar : beaucoup – ko'p ;peu- kam ; un peu –bir oz ; assez – yetarli ; trop- juda ko'p ; combien – qancha :

Peu de gens s'arretent ici – Bu yerda odamlar kamdan-kam to'xtaydi.

Elle a achete beaucoup de livres dans ce magasin – U bu magazindan ko'p kitob sotib oldi.

Elle a mis tros de sucre dans le the – U choyga juda ko'p qand soldi.

2.Otdan oldin a yoki de predlgi kelib, u oldingi otni aniqlasa, artikl qo'llanmaydi:

une robe de soe – shohi ko'ylak ;

une tasse a cafe – kofe idishi.

3.Bo'lishsiz formada tuslangan ba'zi fe'llardan keyin kelgan otdan oldin noaniq va partitiv artikl predlog bilan almashadi.

J'ai une cravate-Mening galstugim bor. Je n'ai pas de cravate- Mening galstugm yo'q.

Nous avons achete des billets – Biz bilet sotib oldik.

Nous n'avons pas achete de billet – Bizlar bilet sotib olmadik.

Je n'aime pas de the froid – Men sovuq choyni yoqtirmayman.

Il fait du vent aujourd'hui – bugun shabada bo'lyapti

Il ne fait pas de vent aujourd'hui – Bugun shabada bo'lmayapti.

Elle a de la force – U kuchli. Elle n'a pas de force- Uning madori yo'q.

4. De predlogi bilan qo'llanuvchi otni talab etadigan fe'ldan, sifat va sifatdoshdan keyin artikl qo'llanmaydi :

Les livres etaient couverts de poussiere. – Kitoblarni chang bosib yotardi.

Le ciel est plein d'etoiles. – Osmon yulduzlarga to'la.

J'ai besoin d'un dictionnaire. – Menga lug'at kerak.

Ses yeux se remplirent de larmes. – Uning ko'zlari yoshga to'lgan edi.

La shambre est orne de flers. – Xona gullar bilan bezatilgan.

5. Agar otdan avval sifat kelsa, ko'plik formadagi noaniq artikl de predlogi bilan almashadi.

Il a cite de bons exemples. U yaxshi misollar keltiradi.

De nombreux touristes visitent Tachkent. Toshkentga ko'plab sayyohlar tashrif buyurishadi..

6. Umumiy ma'no anglatadigan fe'llardan tashkil topgan turg'un fe'l birikmalarida artikl islatilmaydi : avoir, faire, prendre, rendre, mettre :

avoir soif –suvsamoq, chanqamoq

faim –och bo'lmoq

peur –qo'rqmoq

prendre froid – shamollamoq

part a – ishtirok etmoq

7. Shaxssiz idiomatik birikma tarkibiga kiruvchi otlardan oldin :

Il fait beau temps. – Ob havo yaxshi

Il est temps de rentrer a la maison. – Uyga qaytish vaqti bo'ldi.

Sifat (Adjectif)

Sifat ot bilan birgalikda qo'llanib, onli va jonsiz predmetlarning sifati, belgisi xususiatini bildiradigan so'z turkumidir.

Ma'nosiga ko'ra sifatlar ikki katta guruhga bo'linadi : 1) asliy siatlar ; 2) nisbiy sifatlar.

1) Asliy sifatlar. Bu sifatlar predmetning o'ziga xos belgi yoki xususiatlarni bildiradi: une grande maison – katta uy; belle rue – chiroyli ko'cha.

2) Nisbiy sifatlar. Bu sifatlar predmet belgisining boshqa predmetlarga nisbatan o'xshatish orqali ifodalaydi: le pouvoir de la ville – shahar hokimiyati; une ville francaise – fransuz shahri; une fabrique textile – to'qimachilik fabrikasi.

Asliy sifatlardan daraja formalari yasaladi. Bir xil belgining qiyos qilinishidan ikki xil daraja yasaladi. Asliy sifatlar oddiy, qiyosiy va orttirma darajaga ega :

- 1) Nazira est aussi attentive que Lola
- 2) Nazira est plus attentive que Akbar
- 3) Lola est la plus attentive de la classe.

Nisbiy sifatlardan daraja formalari yasalmaydi.

Asliy va nisbiy sifatlar o'zi aniqlagan otga nisbatan turlicha o'rinda (pozitsiyada) joylashadi. Asliy sifatlar otdan oldin ham, keyin ham kela oladi. Nisbiy sifat esa doimo otdan keyin keladi:

Une jolie maison- chiroyli uy; une maison jolie – chiroyli uy; une langue étrangère- chet tili; une ville natale – ona shahar.

Sifatlarning tuzilishi

Fransuz tilida sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari quyidagicha : 1) sodda ;2) yasama ; 3)qo'shma.

1) sodda (simples) : grand -katta, haut- baland.

2) Yasama (derives) :

a) negiz+suffiks :

revolution+aire – revolutionnaire

b) prefiks+ negiz:

im+mobil- immobile.

3) qo'shma (compose)

a) sifatsifat yoki sifatsifatdosh :

sourd+muet- kar-soqov

aveugle+ne – tug'ma ko'r.

Eslatma : Agar millatni bildiradigan ikki ot biriksa, birinchisiga o qo'shiladi :

La guerre franco-prussienne a dure 100 ans. Fransiya- Prussiya urushi 100 yil davom etgan.

b) ravish + sifatsifat yoki sifatsifatdosh:

bienveillant – iltifotli, muruvvatli.

Sifatlarning grammatik kateqoriyalari

(Categories grammaticales de l'adjectif)

Fransuz tilidagi sifat ikkita grammatik kateqoriyaga : rod va songa ega.

Sifatlarda jenskiy rodning yasalishi

Sifatlarning rod va son kateqoriyasi sifat bilan qo'llanuvchi otning rod va coniga bo'g'liq bo'ladi. Otning rod va soniga qarab sifat u yoki bu rod va sonda qo'llanadi.

Sifatlarning jenskiy rodi mujskoy roddagi sifatga o'qilmaydigan e harfini qo'shish bilan yasaladi.

Sifatlar jenskiy rodi yasalishida quyidagilarga alohida e'tibor berilmog'i lozim :

1. e harfi bilan tugallangan sifatlarning imlosi ham, talaffuzi ham jenskiy rodga o'zgarmaydi.

Mujskoy rod

jenskiy rod

Un jeune homme – yosh yigit

une jeune femme – yosh ayol

Un large pont – keng ko'priq

une large riviere – keng daryo.

2.Imlosi o'zgarib, talaffuzi o'zgarmaydigan sifatlar quyidagilardan iborat :

a) mujskoy rodga o'qilmaydigan e harfi bilan tugallangan sifatlar :

Mujskoy rod

Jenskiy rod

Un ciel bleu-moviy osmon

Une robe bleue – havo rang ko'ylak

Un fait vrai- ishonchli dalil

une histoire vraie – bo'lgan voqea.

b)-et,-el,-eil va –c (k) harf va harf birikmalari bilan tugaydigan sifatlar :

m.r.

j.r.

cruel

cruelle

pareil

pareille

habituel	habituel
reel	reelle
turc	turque
public	publique

3. Yozilishi va talaffuzi o'zgaradigan sifatlار. Bu sifatlarning ham jenskiy rodi mujskoy roddagi shakliga e harfini qo'shish yo'li bilan yasaladi.

Grand – grande – katta ;

Petit – petite – kichik ;

Blond- blonde- rangpar.

Sifatlarning quyidagi xususiyatlari qiziqish uyg'otadi :

1) mujskoy rodda –s yoki –x harfiga tugagan sifatlار jenskiy rodda o'qilmaydigan e harfidan oldin qosh –ss (s) harfini qabul qiladi:

las – lasse – horg'in ;

bas – basse – past ;

gros – grosse – semiz ;

epais – epaisse –quyuq, qalin ;

roux – rosse – sariq, malla.

2) mujskoy rodda – et harf birikmasi bilan tugagan sifatlarning qo'shimchasi jenskiy rodda –ette shaklida bo'ladi :

net – nette ;

muet – muette.

Jenskiy rodda oxirgi – t ikkilantirilmaydigan sifatlار bundan mustasnodir :

Complet- complete ;

Concret – concrete

Discret-discrete;

Inquiet – inquiete;

Replete – replete;

Secret – secreete.

Jenskiy rodida burun tovushlari –on, -en bilan tugagan sifatlarda n ikkilantiriladi va sof undosh tovushga aylanadi:

Bon (yaxshi) – bonne;

Ancien (ko'hna) – ancienne.

-in , - un qo'shimchalari bilan tugagan sifatlarda bu qoidaga bo'ysunmaydi :

fin – fine

brun- brune

3) mujskoy rodida –f harfi bilan tugagan sifatlarning jenskiy rodida bu harf – v ga aylanadi:

actif – active

passif – passive

4) sifatlarning jenskiy rodi yasallishining alohida hollari :

blanc – blanche;

franc – franche;

frais-fraiche

long – longue.

5) grand sifatinin jenskiy rodi talaffuz qilinmaydigan e harfini qo'shish bilan yasaladi, ba'zi qo'shma so'zlarda bu sifati e harfisiz yoziladi:

grand-mere – buvi

grand – route – katta yo'l.

Quyidagi sifatlarda mujskoy rodning ikki formasi mavjud:

Un beau monument – ajoyib haykal. Un bel arbre – chiroyli daraxti ;

Un nouveau manteau – yangi palto. Un nouvel etablissement – yangi idora ;

Un vieu chapeau – eski shapka. Un fol espoir – aqlga sig'maydigan ishonch, umid.

Un homme fou-telba odam.

Un mol oreiller –yumshoq yostiq.

Un tapis mou –yumshoq gilam.

Un vieil ami –eski do'st.

Jenskiy rod

Une belle femme – chiroyli ayol.
Une nouvelle robe – yangi ko'ylak
Une folle idee – aqlga sig'maydigan fikr
Une molle couverture – yumshoq ko'rpa
Une vieille revue – eski jurnal.

Sifatlarda son kategoriyasi

1. Sifatlarning ko'plik formasi birlik sondagi sifatga –s harfi qo'shish bilan yasaladi:

Une robe bleue – des robes bleues;
Un grand jardin – des grands jardins.

2. – eau qo'shimchasi bilan tugallangan sifatlarga ko'plikda x harfi qo'shiladi ;

un beau jardin – des beaux jardins ;
un nouveau livre – des nouveaux livres ;

3. Birlik sondagi – al qo'shimchasi ko'plikda – aux ga aylanadi :

Un exercice oral – des exercices oraux :
Un adjectif verbal – des adjectifs verbeaux.

Quyidagi sifatlar bundan mustasnodir :

Banal – banals

Fatal – fatals

Final – finals

Glacial – glasials

Natal- natal

Naval – navals

Sifat darajalari

(Degres de comparaison des adjectifs)

Asliy sifatlar uchta darajaga ega : oddiy, qiyosiy va orttirma darajalar.

Oddiy daraja (le positif)da bir predmetdagi belgi to'g'ridan-to'g'ri (darajasiz) anglatiladi.

Qiyosiy daraja (le comparatif) predmet belgisining tengligini (comparatif d'egalite), ortiqligini (comparatif de superiorite) va kamligini (comparatif d'inferiorite) ko'rsatadi.

Sifatlarning qiyosiy darajasini yasashda aussi (ham), plus (ko'proq), moins (kamroq) ravishlari qo'llanadi.

Ravish odatda sifatdan oldin keladi.

Orttirma daraja (le superlative) predmet belgisining eng yuqori va eng past darajasini ko'rsatadi.

Sifatlarning orttirma darajasini yasash uchun qiyosiy darajadagi sifatdan oldin aniq artikl qo'llanadi:

Il etait le plus grand ami de cet ecrivain. – U mazkur yozuvchinning eng yaxshi do'sti edi.

SIFAT DARAJALARI

Oddiy daraja

Bon-bonne.-yaxshi. Ce resultat est bon – Bu yaxshi natija

Mauvais – mauvaise.- yomon. Ce resultat est mauvais – Bu yomon natija (oqibat)..

Petit – petite – kichik. Cette maison est petite – Bu kichik uy.

Qiyosiy daraja (Comparatif)

Aussi –day,-dek. Cette robe est aussi jolie que la mienne. Bu ko'ylak menikiday chiroyli.

Plus – roq. Cette robe est plus jolie que lamienne. Bu ko'ylak menikidan chiroyliroq.

Moins –roq (kam). Cette robe est moins jolie que la mienne. Bu ko'ylak menikiday chiroyli emas.

Orttirma daraja (Superlatif)

La plus jolie (grand,-e) –eng chiroyli (katta) . cette robe est la plus jolie de toute mes robes. Bu ko'ylaklarim ichida eng chiroylisidir.

Le, la moins jolie (grand,-e) eng xunuk (kichik). Cette robe est la moins jolie de toutes mes robes. Bu ko'ylaklarim ichida eng xunugidir.

Les plus jolies (grands-es) eng chiroyli(katta). Ce sont les plus jolies robes de ma soeur. Bular singillarimning eng chiroyli ko'ylaklaridir..

Les moins jolies (grands-es) eng xunuk (kichik). Ce sont les moins jolies robes de ma soeur. Bular singimning eng xunuk ko'ylaklaridir.

Mauvais va petit sifatlariga plus yoki moins ravishlarini qo'shish bilan qiyosiy daraja yasash mumkin. Plus petit og'zaki nutqda ko'p qo'llanadi.

Moindre sifati miqdor yoki daraja bildiradi: Le nombre de livres dans cette bibliotheque est moindre que celui dans la bibliotheque voisine. Bu kutubxonadagi kitoblar miqdori qo'shni kutubxonadan kam.

Mauvais va petit sifatlarining darala formasi ham plus yoki moins ravishlari vositasida yasaladi.

Masdalan,Petit sifatining plus petit formasi og'zaki nutq va adabiy tilda moindre ga nisbatan ko'proq ishlatiladi.

Sodda sifatlarning moslashuvi (Accord des adjectifs)

1. Sifat o'zi aloqador bo'lgan ot oki olmosh bilan rod va sonda moslashadi :

Un costume neuf – yangi kostyum ;

Une ville neuve – yangi shahar ;

Des robes belles – chiroyli ko'ylaklar.

2. Agar sifat mujskoy roddagi bir necha otga tegishli bo'lsa, u bilan rod va sonda moslashadi :

J'ai achete un costume et un chapeau neufs- Men yangi kostyum va shlyapa oldim.

3. Agar sifat jenskiy roddagi bir necha otga aloqador bo'lsa, u jenskiy rod ko'plikda ko'llanadi :

Les rues et les maisons sont belles – Ko'cha va uylar chiroyli.

4. Agar sifat turli rodlardagi bir necha otga tegishli bo'lsa, u mujskoy rod ko'plikda ishlatiladi :

Elle achete un livre et une serviette neufs – U yangi kitob va portfel sotib oldi.

Eslatma : bon , mauvais, haut, fort, faux, juste, clair, droit kabi sifatlar ravish vazifasida kelganda moslashuv bo'lmaydi :

S'arreter net – to'satdan to'xtamoq ;

Chanter faux – noto'g'ri ashula aytmoq

Couter cher – narxi qimmat turmoq ;

Parler bas – sekin gapirmoq.

Qo'shma sifatlarning moslashuvi (Accord des adjectifs composes)

1. Ikki sifatdan yasalgan qo'shma sifat ot bilan rod va sonda moslashadi :

Une femme sourde – muette – kar-soqov ayol.

2. Rang bildiradigan qo'shma sifatlar o'zgarmasdir :

La jeune fille avait les yeux gris –fonce.

3. Ikki elementdan (qismdan) iborat bo'lgan qo'shma sifatning birinchi elementi o unlisi bilan tugasa, ikkinchi elementi rod va sonda ot bilan moslashadi :

La guerre franco- prussienne.

Asliy sifatlarning gapdagi o'rni

1.Odatda asliy sifat o'zi aniqlagan otdan keyin keladi: Nous avons traverse une rue large.

Sifat o'zi aniqlagan otdan oldin kelishi ham mumkin. Quyidagi eng ko'p qo'llanadigan sifatlar shular jumlasiga kiradi:

Grand, petit, bon, mauvais, vieux, joli, nouveau, haut, long, jeune, beau, vrai, gros.

Une jolie maison. Chiroyli uy

Une grande ville – Katta shahar.

Un jeune homme – Yosh yigit.

2. Predmetning rangi va shaklini bildiradigan sifatlar gapda doimo otdan keyin keladi:

une robe noire ;

une table carree.

4. Ko'pgina sifatlarning gapdagi o'rni o'zgarishi bilan ma'nosi ham o'zgaradi :

un homme grand – novcha (uzun bo'yi) odam

un grand homme – ulug', buyuk odam

un brave garçon – rostgo'y bola

un garçon brave – jasur bola

les mains propres – ozoda, toza qo'l

les propres mains – o'z qo'liga (shaxsan)

un pauvre homme – baxtsiz odam

un homme pauvre – nochor, bechora odam

une ancienne bibliotheque – ilgarigi kutubxona

une bibliotheque ancienne – qadimiy kutubxona

Sifatlarning sintaktik funksiyasi (Fonction syntaxique des adjectifs)

Asliy sifatlar gapda quyidagi vazifalarni bajaradi :

1) Aniqlovchi Cette fierte porte une robe rouge.

2) Kesimning ot qismi : Ces chambres sont claires.

3) Asliy sifatlarning ba'zilari hol vazifasida keladi : Elle a refuse net. U butunlay rad etdi.

Gumon (noaniq) sifatlari (Adjectifs indefinis)

Gumon sifatlari orasida faqat sifat va olmosh bilan sifat vazifasida qo'llanadiganlari mavjud

Faqat sifat vazifasida qo'llanadigan gumon sifatlari :

Chaque – har bir, har qanday . chaque etudiant doit repondre a cette question.
Har bir talaba bu savolga javob bera olishi kerar.

Quelque (birgalikdagi otdan oldin) –birovdan, biror kimsadan. Prenez ce manuel a quelque etudiant. Bu darslikni kimdan bo'lsa oling.

Quelques (ko'plikdagi otdan oldin) – bir necha. Dans ce bibliotheque j'ai pris quelques livres interessants. Men kutubxonadan bir necha qiziqarli kitob oldim.

Autre – boshqa. Donnez moi un autre cahier. Menga boshqa daftar bering.

Aucun –hech bir, hech qanday. Cette phrase n'a aucun sens. Bu gapning hech qanday ma'nosi yo'q.

Plusieurs – bir necha, bir qancha. J'ai lu plusieurs romans de cet ecrivain. Men bu yozuvchining bir necha kitoblarini o'qiganman.

Tel (telle)-shunday . tel etait son opinion. Uning fikri shunday edi. Elle a exprime une telle admiration que tout le monde l'a remarquee. U shunday zavqlandiki, uni hamma payqadi.

Nul (nulle) – hech qanday bir, birorta. Vous n'avez nulle raison de soupconner. Sizda undan shubha qilishga hech qanday asos yo'q. Nul etudiant n'a repondu a cette question. Bu savolga birorta ham talaba javob bera olmadi.

Quelquonque(doim otdan keyin keladi)- birorta. Ce voyageur nous racontera une histoire quelquonque. Bu sayyoh bizga birorta voqeani gapirib beradi.

Certain,-e – bir oz, bir muncha. Il eprouve une certaine inquietude. U bir oz iztirob chekadi. Cet homme a un certain talent. Bu kishining bir oz talanti bor.

Gumon sifatlari predmet belgisi yoki miqdorining noaniqligini anglatadi.

Gumon sifatlari doimo ot oldida kelib, ularning rodi v sonini belgilaydi, shunigdek, rod va sonda moslashadi.

Gumon sifatlarining qo'llanishi

1. Tous – sifat, olmosh va ravish vazifasini o'tay oladi:

Tout – sifat vazifasida “har”, “har bir”, “har qanday” ma'nolarini anglatadi va sonda o'zgaradi:

a) tout – aniq artikl, ko'rsatish olmoshi yoki egalik sifati bilan kelgan otdan oldin « barcha », « har bir » ma'nolarin anglatadi :

Tous les eleves sont venus . hamma o'quvchilar kelishdi.

Tous mes amis sont deja partis. Mening hamma do'stlarim allaqachon ketib qolishgan.

b) tout, toute – noaniq artikl bilan kelgan otdan oldin faqat birlikda qo'llanilib, o'zbek tilida « bilan » yoki « beri » ko'makchisiga to'g'ri keladi.

Je restait a la maison toute la journe. Men kuni bilan uyda o'tirardim.

c) tout – ravish vazifasida “butunlay”, “mutlaqo”, “juda” ma'nolarini anglatadi:

Cette femme vivait toute seule. Bu ayol butunlay yolg'iz yashardi.

Elle etait toute heureuse. U juda baxtli edi..

2.Meme – gapdagi o'rniga ko'ra ma'nosini o'zgartiradi.

Agar meme artikl yoki egalik sifati bilan kelgan otdan oldin qo'llansa. « o'sha », « o'shaning o'zi », « xuddi o'sha », « o'shanday » ma'nolarini anglatadi :

Tous les etudiants avaient les memes devoirs. Hamma talabalarga xuddi shunday vazifa berilgandi.

Agar meme otdan keyin kelsa “hatto”, “hattoki” ma'nolarini anglatadi:

Nazira ne nous a meme ras remarque. Nazira hatto bizni sezmadi ham.

3.aucun, chaque, maint, plusieurs sifatlari doim artiklsiz yoki aniqlovchisiz (determinantlarsiz) qo'llanadigan ot oldida keladi :

chaque dimanche nous allons au cinema. Har hafta biz kinoga boramiz.

Il a achete plusieurs livres dans la librairies. U kitob magazinidan bir necha kitob sotib oldi.

Il racontait cette histoire maintes fois. U bu voqeani bir necha marta gapirib berdi.

Vous n'avez aucune raison de manquer les cours. Sizning darsdan qolishingizga hech bir sabab yo'q.

Ko'rsatish sifatlari (Adjectifs demonstratifs)

Ko'rsatish sifatlarining ikkita formasi mavjud :

Mujskoy rod.

Ce. Cet . Ce cahier- Bu daftar. Cet arbre – Bu daraxt.

Jenskiy rod

Cette . Cette chaise. Bu stul. Cette maison. Bu uy.

Ko'plik (ikkala rod uchun)

Ces. Ces etudiants. Bu talabalar. Ces maison. Bu uylar.

Cet – mujskoy rod birlik sondagi unli bilan yoki o'qilmaydigan h bilan boshlangan otdan oldin keladi :

Cet arbre. Bu daraxt. Cet hotel. Bu mehmonxonona.

Cette – jenskiy rod birlik sondagi har qanday otdan oldin keladi :

Cette fille. Bu qiz. Cette etudiante. Bu talaba (qiz)

Ces – koplikda ham mujskoy, ham jenskiy roddagi ot oldida keladi :

Ces garcons . bu bolalar. Ces hotels . bu mehmonxonalar.

Egalik sifatlari (Adjectifs possessifs)

Egalik sifatlari bir yoki bir necha predmetning bir yoki bir necha egasi borligini bildiradi. Egalik sifatlari otning aniqlovchisi oldidan keladi. Bunda artikl ishlatilmaydi.

1) Egalik sifatlari aniqlovchi bilan rod va sonda moslashadi.

2) Egalik sifatlari gapda ma'lum predmetning egasini bildiraganida ot yoki olmosh bilan shaxs va sonda moslashadi :

Mon livre est interessant- Mes livres sont interessants. Ma robe est joli- Mes robes sont jolies.

Predmet bitta shaxsga qarashli bo'lsa, 111 shaxs birlikdagi egalik sifatining rodi predmetning rodiga bog'liq bo'ladi :

Son livre- uning kitobi :

Sa veste- uning kurtkasi (kalta kamzul).

Marie est contente de la visite de Pierre. Elle est contente de sa visite.

Unli bilan yoki o'qilmaydigan h bilan boshlangan jenskiy roddagi otdan oldin yaxshi eshitilishini nazarda tutib, mon, ton, son egalik sifatlari qo'llanadi.

Masalan : Mon amie (une amie)- Mening dugonam. Mon horloge (une horloge) > Mening soatim. Mon ecole (une ecole). Mening maktabim. Kabi.

Egalik sifatlari

Birlik

Mon, ton, son, - ma, ta, sa; mes, tes, ses .

Ko'plik

Notre, votre, leur ; nos, vos, leurs kabilar.

So'roq sifatlari (Adjectifs interrogatifs)

Quel - so'roq sifati rod va sonda o'zgaradi.

Mujskoy rod. Quel – qanday, quels – qanday.

Jenskiy rod. Quelle- qanday. Quelles- qanday.

Quel- bevosita otdan oldin keladi. Bu holda artikl ishlatilmaydi :

Quels livres lisez –vous ? – Siz qanday kitoblar o'qiysiz ?

Quel – kesimning ot qismi vazifasida gap boshida bog'lovchidan oldin keladi :

Quels sont vos livres preferes. Sizing eng sevimli kitoblaringiz qaysilar ?

Quell – hayajon, ajablanish, g'azab va shu kabilarni bildirish uchun undov gapda qo'llanadi:

Quell travail! – Ajoyib ish !

Quel homme ! – Ajoyib odam !

Son (Adjectifs numeraux)

Son miqdor tushunchasini ifodalovchi so'z turkumi son deyiladi.

Fransuz tilida sanoq son(adjectifsnumeraux ordinaux) mavjud. Sonlar quyidagi bo'laklarga bo'linadi : sanoq son ; kasr son ; tartib son kabilar.

Sanoq sonlar (Adjectifs numeraux cordinaux)

Sanoq sonlar rodada ham, sonda ham o'zgarmaydi. Un soni bu qoidaga bo'ysunmaydi.

Un – mujskoy rodada. Une –jenskiy rodada.

Vingt va cent sonlaridan oldin ularni aniqlab keladigan son bo'lsa, ko'plik belgisi (s) qo'yiladi, agar ulardan keyin boshqa biror son kelsa (s) qo'yilmaydi :

Cinq cents roubles – Cinq cent trois roubles.

Quatre vingts ans- Quatre vingt sept ans.

Sanoq sonlar quyidagi hollarda sifat o'rnida ishlatiladi :

1. Sonni ifodalaydi : Aujourd'hui nous sommes le quinze mars. Ammo : le premier mars.

2. Yilni ifodalash uchun : Nous sommes en mil neuf cent soixante cinq.

3. Sahifa, bob va paragrafni ifoda etadi :

Page trois – uchinchi bet.

Chapitre cinq – beshinchi bob.

4. Uyning nomerini anglatadi :

J'habite rue Mustaqillik, cinq- men Mustaqillik ko'chasi 5-uyda yashayman.

Sanoq sonlarning turlari

Sanoq sonlar sodda va qo'shma sonlarga bo'linadi : un, deux, dix-sept, trente-trois.

1-un,une-bir

2-deux-ikki

3- trois-uch

4-quatre – to'rt

- 5- cinq-besh
- 6-six – olti
- 7-sept – yetti
- 8- huit-cakkiz
- 9- neuf – to'qqiz
- 10- dix- o'n
- 11- onze – o'n bir
- 12- douze –o'n ikki
- 13- treize –o'n ikki
- 14-quatorze – o'n to'rt
- 15- quinze –o'n besh
- 16- seize – o'n olti
- 17- dix sept – o'n yetti
- 18- dix huit – o'n sakkiz
- 19- dix neuf – o'n to'qqiz
- 20-vingt – yigirma
- 21- vingt-et-un –yigirma bir
- 22- vingt-deux –yigirma ikki
- 30- trente-o'ttiz
- 31- trente – et- un –o'ttiz bir
- 32- trente-deux-o'ttiz ikki
- 40- quarante – qirq
- 41- quarante et-un –qirq bir
- 42- quarante – deux – qirq ikki
- 50-cinquante- ellik
- 51-cinquante et- un –ellik bir
- 52- cinquante – deux – ellik ikki
- 60- soixante- oltmish
- 61- soixante-et-un – oltmish bir
- 62- soixante deux – oltmish ikki

70-soixante-dix-yetmish
71- soixante – onze-yetmish bir
72- soixante – douze – yetmish ikki
80- quatre – vingts – sakson
81-quatre – vingts-un –sakson bir
82-quatre vingts –deux – sakson ikki
90- quatre vingts - dix- to'qson
91- quatre –vingts-onze- to'qson bir
92-quatre –vingts douze – to'qson ikki
100 – cent –yuz
101-cent un – bir yuz bir
200 – deux cents – ikki yuz
1000-mille-ming
1000000-million (un)

Tartib sonlar(Adjectif numeraux ordinaux)

Tartib sonlar predmetning tartibini yoki birin – ketin kelishini ko'rsatadi :

C'est la premiere lecon- Bu birinchi dars.

Tartib sonlar sanoq sonlarga –ieme suffiksini qo'shish bilan yasaladi :

Un-unieme bir-birinchi

Deux – deuxieme – ikki – ikkinchi

Mustasno : premiere-birinchi, seconde-ikkinchi

Tartib sonlarda qiyosiy daraja bo'lmaydi.

Tartib son yasalishining o'zigs xos xususiatlari

1. Sanoq sondan tartib son yasalganda sanoq sonlar oxirida o'qilmaydigan e harfi tushib qoladi:

Quatre- quatrieme top'rt-to'rtinchi;

Treize – treizieme o'n uch-o'n uchunchi.

Tartib son (Adjectifs numeraux ordinaux)

Premier, premiere – birinchi

Deuxieme – ikkinchi

Troisieme –uchinchi

Quatrieme – to'rtinchi

Cinquieme – beshinchi

Sizieme – oltinchi

Septieme – yettinchi

Huitieme – sakkizinchi

Neuvieme –to'qqizinchi

Dixieme – o'ninchi

Onzieme – o'n birinchi

Douzieme – o,n ikkinchi

Treizieme- o'n uchunchi

Quatorzieme – o,n to'rtinchi

Quinzieme – o'n beshinchi

Seizieme – o'n oltinchi

Dix – septieme – o,n yettinchi

Dix – huitieme- o'n sakkizinchi

dix-neuvieme – o,n to'qqizinchi

vingtieme – yigirmanchi

vingt-et- unieme –yigirma birinchi

vingt – deuxieme- yigirma ikkinchi

vingt- troisieme – yigirma uchinchi

vingt – quatrieme – yigirma to'rtinchi

vingt- cinqieme-yigirma beshinchi

vingt – sixieme – yigirma oltinchi

vingt – septieme- yigirma yettinchi

vingt – huitieme – yigirma sakkizinchi

vingt – neuvieme – yigirma to'qqizinchi

trentieme – o'ttizinchi

quarantieme – qirqinchi

cinquantieme – elliginchi

soixantieme – oltmishinchi

soixanttieme – oltmishinchi

soixante-dixieme – yetmishinchi

quatre – vingtieme – sacsoninchi

quatre vingt – dixieme – to'qsoninchi

centieme - yuzinchi

2. Neuf sonidagi f harfi v ga aylanadi :

neuf – neuvieme to'qqiz – to'qqizinchi.

3. Unieme soni hech mustaqil qo'llanmaydi. U faqat qo'shma tartib sonlarda sanoq son bilan birikkan holda ishlatiladi :

Vingt-unieme – yigirma birinchi

Cinquante – unieme- ellik birinchi

5. deux sanoq sonining tartib son formasi deuxiemedir. Undan tashqari, second,-e formasi mavjud ;

J'habite le premier etage et ma soeur habite le seconde.

Second hech vaqt qo'shma tartib son bilan qo'llanmaydi :

Trente- deuxieme – o'ttiz ikkinchi ;

Vingt-deuxieme – yigirma ikkinchi

Kasr sonlarni ifoda etishda kasr surati sanoq son, maxraji tartib son bilan ifoda qilinadi :

Un million soniga ko'plikda s koplik qoshimchasi qoshiladi va undan keyingi ot de predlogi bilan keladi :

Chaque annee l'Ouzbekistan donne a l'Etat cinq millions tonnes de coton.

Mille (ming) soni sanalarda odatda quyidagicha yoziladi : mil neuf cent cinquante trois – ming to'qqiz yuz ellik uchinchi yil.

Sanada mil neuf cent o'rnida dix-neuf cent yoxish ham mumkin.

Mille soniga –ier suffiksini qoʻshish bilan yasaladi :

Un millier – mingga yaqin, mingtacha.

Pronom (Olmosh)

Ot oʻrnida qoʻllanib, uning belgisini(qarashlilik, noaniqlik, miqdor) koʻrsatadigan soʻz turkumi olmosh deyiladi.

Olmosh gapda otga oʻxshash funcsiya bajaradi.

Fransuz tilida olmosh turlari quyidagilardan iborat.

1. Kishilik olmoshlari (Pronoms personnels)
2. Egalik olmoshlari (Pronoms possessifs)
3. Korsatish olmoshlari. (Pronoms demonstratifs)
4. Nisbiy olmoshlar. (Pronoms relatifs).
5. Soʻroq olmoshlari (Pronoms interrogatifs)
6. Gumon olmoshlari (Pronoms indefinis)
- 7.Oʻzlik olmoshlari (Pronoms reflichis)

Kishilik olmoshlari (Pronoms personnels)

Fransuz tilida kishilik olmoshlarining ikki turi mavjud :

- a) mustaqil boʻlmagan urgʻusiz kishilik olmoshlari (pronoms personnels atones) ;
- b) mustaqil, urgʻuli kishilik olmoshlari (Pronoms personnels toniques).

Urgʻusiz kishilik olmoshlari (Pronoms personnels atones)

Sh.	Birlik	Koʻplik						
	Ega	vositasiz toʻld.		Vositali toʻld.	Ega	vositasizli toʻld.		Vositali
toʻld/ 1	je -men	me-meni	me-menga	nous-biz	nous-bizni	nous-		
bizga								
11	tu-sen	te-seni	te –senga	vous-siz	vous-sizni	vous –		
sizga								

111 il – u le-uni lui-unga ils-ular les –ularni leur –
ularga

elle – u la- uni elle –unga

bu olmoshlar gapda doimo fe'l bilan qo'llanib, ega, vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi vazifasini o'taydi :

je parle – Men gaplashayapman.

Il me cherche- U meni qidryapti.

Il me raconte une histoire – U menga bir voqeani gapirib beryapti.

Urg'usiz kishilik olmoshlari ega vazifasida shaxs va sonni bildiradi.il, elle, ils, elles kishilik olmoshlari shaxs va sondan tashqari rodni ham ifodalaydi.

Urg'usiz kishilik olmoshi tuslanayotgan fe'ldan oldin kelib, uning shaxs va son grammatik kategoriyasini ifodalaydi. Bundan tashqari fe'l formalarining ba'zilar talaffuz va orfografiyada bir xil ko'rinishga ega. Shuning uchun ham ularning fe'l bilan ishlatilishi shart.

Je travaille – Men ishlayman

Tu travailles – Sen ishlaysan

Il travaille – u ishlayapti

Quyidagi hollarda kishilik olmoshini qo'llamaslik mumkin:

a) ega boshqa so'z turkumi bilan ifodalangan bo'lsa :

Quelqu'un a frappe a la porte.-Kimdir eshikni taqillatdi.

b) buyruq maylida :

Parlons ! –Gaplashaylik ! Sortez ! –Chiqing !

Olmosh – ega gapning bo'lishli formasida fe'l-kesimdan oldin keladi :

Il marche – U ketyapti.

Ils sont etudiants – Ular talabalardir.

Ko'p hollarda olmosh ega fe'l – kesimdan keyin qo'llanadi :

a) gapning so'roq formasida :

Marche-t-il? – U yuradimi ?

Sont-ils etudiants ? – Ular talabalarimi ?

b) kirish gaplarda(ko'chirma gaplarda :

Quel appel ! dit-il avec un rire leger (Vercors)

Qanday chaqiriq ! dedi u miyig'ida kulib.

Me, te , le, la, nous, vous, les urg'usiz kishilik olmoshlari vositasiz to'ldiruvchi vazifasida ishlatiladi :

Pourtant je lui montrai les chambres libres(Vercors).- Ammo men unga bo'sh uyni ko'rsatdim.

Il nous a parle de son enfance. – U bizga o'zining bolaligi haqida gapirdi.

Il lui cria quelque chose. – U unga nimadir deb qichqirdi.

Urg'usiz kishilik olmoshlarining gapdagi o'rni

Urg'usiz kishilik olmoshlari bevosita fe'l-kesimdan oldin keladi :

Je lui telephone. –Men unga telefon qilaman.

Il ne nous voit pas. – U bizni ko'rmayapti.

Qo'shma zamonlarda olmosh-to'ldiruvchi bevosita ko'makchi fe'ldan oldin keladi :

Il les a vus hier. – U ularni kecha ko'rdi.

Lui as-tu telephone ?- Sen unga qong'iroq qildingmi ?

Fe'lning shaxsli formasi infinitive bilan birikib kelsa, olmosh to'ldiruvchi infinitivdan oldin keladi:

Je dois lui render ce livre. – Men unga bu kitobni qaytarib berishim kerak.

Il ne veux pas les attendre. – U ularni kutmoqchi emas.

Buyruq maylining bo'lishli formasida olmosh- to'ldiruvchi fe'ldan keyin keladi.

Racontez – lui ! Unga gapirib bering !

Ecrivez – nous ! – Bizga xat yozing !.

Buyruq maylinng bo'lishsiz formasida urg'usiz olmosh to'ldiruvchi fe'ldan oldin keladi.

Ne me quittez pas ! – Meni tashlab ketmang !

Ne les cherchez pas ici ! – Ular bu yerdan qidirmang !.

Fe'ldan oldin ikkita olmosh – to'ldiruvchi (vositali va vositasiz) kelsa, ular ikkalasi ham fe'ldan oldin qollanib, vositali to'ldiruvchi vositasizga to'sqinlik qiladi :

Paul me donne un livre.- Pavel menga bir kitob beradi.

Il me le donne. U uni menga beradi.

Ikkala olmosh – to'ldiruvchi 111 shaxsda bo'lsa, vositasiz to'ldiruvchi vositalidan oldin keladi.

Je la lui apporte. – Men uni unga olib kelaman.

Il les leur a montres – U ularni ularga ko'rsatadi.

Buyruq maylining bo'lishsiz formasida ikkala olmosh- to'ldiruvchi o'z o'rnida (vositali vositasizdan oldin) keladi :

Ne me le dites pas ! – Menga buni aytmang !

Ne nous les expliquez pas ! – Bizga ularni tushuntirmang !

Buyruq maylining bo'lishli formasida vositasiz to'ldiruvchi vositalidan oldin keladi :

Raconte la –nous ! Uni bizga aytib bering !

Envoyez le –leur !- Uni ularga jo'nating !

Olmosh to'ldiruvchining gapdagi o'rni (Place des pronoms conjoints complementss) :

Ega, olmosh vositali to'ldiruvchi, olmosh- vositasiz to'ldiruvchi.

Pierre me le donne.

Agar gapda ikkita olmosh- to'ldiruvchi (vositasiz va vositali) kelsa, birinchi o'rinda olmosh-vositali to'ldiruvchi keladi :

Pierre les lui donne.

Urg'uli kishilik olmoshlari (Pronom personnels toniques)

Birlik Ko'plik

Moi nous

Toi vous

Lui eux

Elle elles

Urg'ulikishilik olmoshlari gapda quyidagi vazifalarni bajaradi :

1. Agar ega yoki vositasiz to'ldituvchi bir necha olmosh bilan ifodalangan bo'lsa, fe'l kesimdan oldin shu urg'usiz olmoshni umumlashtiruvchi urg'usiz kishilik olmoshi qo'llanadi :

Mon ami et moi nous aimons toujours la Patrie. Do'stim va men – biz doimo Vatanni sevamiz.

2. Buyruq maylining bo'lishli formasida me, te urg'usiz olmoshi o'rnida moi, toi urg'uli olmoshi qo'llanadi :

Expliquez-moi ! Menga tushuntiring!

Assieds-toi ! –O'tir !

3. Ot-kesim bo'lib keladi. Bo'lib keladi. Bunda u etre fe'lining 111 shaxsi bilan birikib, ce ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan ega oldida qo'llanadi:

C'est lui qui parle. – Gapirayotgan u.

Ce sont eux qui nous accompagnent. –Kuzatilayotganlar ular.

4. Turli predloglar bilan birikib, vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi :

Elle s'est adressee a lui. – U unga murojaat qildi,

Il etait pres de toi. – U sening yoningda edi.

Elle a beaucoup parle de lui. U uning haqida ko'p gapirdi.

Il est sur de vous . U sizga juda ishonadi.

5. Urg'uli kishilik olmoshlari elliptik gaplarda ishlatiladi :

Qui fera ce travail ? – Moi – Bu ishni kim qiladi ? – Men

Qui apporte ce livre ? – Lui . Kitobni kim keltiradi ? U.

6. Urg'uli kishilik olmoshlari meme, seul, aussi so'zlari bilan birgalikda qo'llanadi :

lui, seul, parle anglais. –Yolg'iz u inglizcha gapiradi.

Ils le ferons eux-memes.- Ular buni o'zlari bajaradilar.

Lui , aussi veut voir ce film. U ham bu filmni ko'rishni istaydi.

2. Egalik olmoshlari (Pronoms possessifs)

Egalik olmoshlariga qarashlilikni bildiruvchi so'zlar turkmiga kiradi. Bu olmoshlar egalik sifati bilan birikib kelgan ot o'rnida mustaqil qo'llaniladi. Bu ot shaxsni ham, predmet yoki mavhum tushunchani ham ifodalaydi. Egalik olmoshi doim aniq artikl bilan ishlatiladi.

Egalik olmoshlarining formalari

(Formes des pronoms possessifs)

1 shaxs Le mien-meniki, mening. La mienne-meniki, mening. Les miens – meniki, mening. Les miennes-meniki, mening.

11 shqxs le tien)seniki ; sening : la tienne - seniki, sening. Les tiens – ceniki, sening. Les tiennes- seniki, sening.

111 shaxs le sien – uniki, uning. La sienne-uniki, uning. Les siens-uniki, u (o'zi) ning. Les siennes –uniki, u (o'zi)ning

Ko'plik

1 shaxs le notre- bizlarniki, bizlarning. La notre – bizlarniki, bizlarning. Les notres – bizlarniki, bizlarning.

11 shaxs le votre – sizlarniki, sizlarning. La votre – sizlarniki, sizlarning. Les votres – sizlarniki, sizlarning.

111 shaxs le leur – ularniki, ularning. La leur – ularniki, ularning. Les leurs- ularniki, ularning

egalik olmoshlari o'zlari ifodalagan predmet bilan rod va sonda moslashadi. Predmet egasi bilan esa shaxs va sonda moslashadi. Masalan :

Est-ce votre manteau ? –Oui, c'est le mien. –Bu sizning paltongizmi ? Ha, bu meniki.

Est –ce sa robe ? –Oui, c'est la sienne. Bu uning ko'ylagimi ?- Ha, bu uniki.

Egalik olmoshlarining sintaktik funksiyalari.

Egalik olmoshlari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Ega:

Notre appartement est a gauche, le votre est a droite- Bizning kvartiramiz chapda, sizniki esa o'ngda.

2. Kesimning ot qismi :

ma soeur est contente: les meilleurs notes les siennes. –Mening opam mamnun : eng yaxshi baholar- uniki.

2. Vositasiz va vositali to'ldiruvchi :

Donne- moi ton livre et je te donnerai la mienne(vositasiz). –Menga kitobingni ber, men senga o'zimgini beraman.

Nous avons telephone a ta soeur et a la notre (vositali). –Biz sening va bizning opamizga qo'ng'iroq qildik.

Ko'rsatish olmoshlari (Pronom demonstratifs)

K'rsatish olmoshlari shaxs, predmet yoki mavhum tushuncha bildiradigan ot o'rnida keladi va gapda ot o'rnida mustaqil qollanadi.

Ko'rsatish olmoshlarining sodda va qo'shma turlari mavjud :

Ko'rsatish olmoshlarining sodda formalari

Celui – bu. Donnez-moi votre stylo et celui de votre camarade- Menga o'zingiz va do'stingizning ruchkasini bering.

Ko'rsatish olmoshlarinin sodda formalari

Celle – bu : donnez- moi votre revue et celle de votre camarade- Menga o'zingiz va do'stingizning jurnalini bering.

Ce, c' -bu : Ce doit etre beau. Bu ajoyib bo'lsa kerak. C'est une table. Bu stol.

Ceux – bular : Donnez moi vos revues et cel les de vos camarades. Menga o'zingiz va do'stlaringizning journallarini bering.

Ko'rsatish olmoshlarining qo'shma formalari

Celui-ci – bu, u.

Celui-ci n'est pas content. U (bu) xursand emas.

Celui-la – u: Ce lui –la heureux. U baxtli.

Celle-ci n'est pas contente. U (bu) xursand emas.

Celle-la est heureuse. U baxtli.

Ceci, cela, ca- bu, u :

Cela est triste. U qayg'uli..

Ca me va. – Bu menga to'g'ri keladi.

Ceux- ci –bu(lar) ;

Ceux-la – u(lar)

Ceux-ci sont contents, ceux-la sont mecontents. Bular xursand. Ular xafa.

Celles-ci-bu(lar):

Celles-la – u(lar) ; cellees-ci sont contentes,) celles-la sont mecontentes.

Bular 9qizlar) xursand, ular (qizlar) xafa.

J'ai beaucoup de livres, prenez celui qui vous interesse. –Menda kitob ko'p, siz o'zingiz qiziqqan kitoblarni oling.

de predlogi bilan kelgan ot orqali ifodalangan to'ldiruvchi yoki aniqlovchini aniqlaydi :

Son ecriture ressemble a celle de son frere. Uning yozuvi akasining yozuviga o'xshaydi.

Voici nos livres et ceux de nos camarades. Mana bizning va do'stlarimizning kitoblari.

Ko'rsatish olmoshlarining qo'shma formalari

Olmoshlarning qo'shma formalari mustaqil ishlatiladi. Bunda ular o'zbek tiliga “bu”, “u”, ‘keyingi’ deb tarjima qilinadi:

Elle attendait sa soeur a l'entrée de l'institut, mais celle-ci n'est pas sortie. – U opasini institut eshigi oldida kutardi, ammo u chaqirmadi.

Je veux voir le professeur de francais, mais celui-ci est occupe. Men fransuz tili o'qituvchisini ko'rishni istayman, lekin u band.

Qo'shma formalar quyidagi hollarda ishlatiladi :

a) taqqoslashda. Bunda ci olmoshi yaqin joydagi predmetni, la olmoshi esa ancha uzoqdagi predmetni ko'rsatadi.

Masalan : Voisi deux grandes rivieres : celle-ci se jette dans la Seine et celle-la dans la Garon. – Mana ikkita katta daryo : bunisi Cenaga, unisi esa Garonaga quyiladi.

Parmi ces travaux celui-ci est plus interessant que celui-la.- Bu ishlar ichida – unisidan bunisi qiziqarliroq.

b) boshqa qator predmetlar ichida birorta predmetni ajratib ko'rsatishda :

Cette robe n'est pas elegante, prenez celle-la. – Bu ko'ylak nafis emas, unisini oling.

De tous les romans de cet auteur je prefere celui-ci.- Bu muallifning barcha kitoblari ichida men mana bunisini ma'qul ko'raman.

Sredniy roddagi ce, cela, ceci, ca ko'rsatish olmoshlarining ishlatilishi.

Sredniy rddagi ce ko'rsatish olmoshi yakka qo'llanmaydi va ot o'rnida almashtira olmaydi.

Bu olmosh quyidagi hollarda qo'llanadi :

1. etre, devoir, pouvoir, sembler fe'llaridan oldin ega vazifasida keladi :

C'est tres interessants – Bu juda qiziq.

Ce doitetre amusant. – Bu iziqarli bo'lsa kerak.

Ce pourrait etre dangereux- Bu xavfli bo'lishi mumkin.

2. Aniqlovchi ergash gap bilan birga keladi :

Je demande ce qui se passe ici. Men bu yerda nima bo'layotganini so'rayapman.

Je lui demande ce qui lui est arrive. Men undan nima bo'lganini sorayapman.

Ce ko'rsatish olmoshining qoshma formalariceci, cela qarama-qarshi ma'noni anglatadi va "bu" deb tarjima qilinadi.

Cela olmoshi ceci ga qaraganda ko'proq qo'llanadi:

1.Ega. Cela exige beaucoup de courage. Bu katta jasorat talab qiladi.

2.Vositasiz to'diruvchi : Elle a retenu cela. U buni eslab qoldi.

3. Vositali to'ldiruvchi:Croyez – vous a cela ? Siz bunga ishonasizmi ?

Ko'rsatish olmoshlari qo'shma formalaining sintaktik funksiyalari

Ko'rsatish olmoshlarining qo'shma formalari quyidagi sintaktik funksiyalarni bajaradi:

1.Ega:

Celui-ci viendra tard. –U kech keladi.

2.Kesimning ot qismi :

nous sommes ceux-ci .Biz xuddi o'shalarmiz.

3.Vostasiz to'ldiruvchi :

Tu preferes celui-la. Sen o'shani ma'qul ko'rasan.

4.Vositali to'ldirvchi :

nous pensons a ceux-la. Biz o'shalar haqida o'ylaymiz.

So'roq olmoshlari (Pronom interrogatifs)

So'roq olmoshlari shaxs yoki predmetga oid savollar tuzish imkonini beradi.

So'roq olmoshlari quyidagilardan iborat :

1) Sodda so'roq olmoshlari.

2) So'roq olmoshlarining kuchaytiruv formalari.

3) Qo'shma so'roq olmoshlari.

So'roq olmoshlarining sodda va kuchaytiruv formalari :

Ega :

Shaxslar uchun : Qui parle ? Kim gapiryapti ? Qui est qui parle ?

Predmetlar uchun : Qu'est-ce qui tombe ? Nima yiqilyapti ?

Vositasiz to'ldiruvchi :

Shaxslar uchun : Qui voyez vous ? Siz kimni ko'ryapsiz ? Qui est-ce que vous voyez ?

Predmetlar uchun : Que voyez – vous ? Qu'est-ce que vous voyez ? Siz nimani ko'ryapsiz ?

Vositali to'ldiruvchi :

Shaxslar uchun :A qui pensez – vous ? Kim Haqida o'ylayapsiz ? De qui parlez-vous- Kim haqida gapiryapsiz ?

Predmetlar uchun : A quoi pensez- vous ? Nima haqida o'ylayapsiz ?De quoi parlez – vous ? Nima haqid gapiryapsiz ?

Kesimning ot qismi

Shaxslar uchun : Qui est-ce?

Qui est-ce que c'est ? Kim bu ?

Predmetlar uchun : Qu'est-ce ? Qu'est-ce que c'est ? Nima bu ?

Kuchaytiruv formalar qo'llanganida gapda inversiya bo'lmaydi va so'zlar tartibi o'zgarmaydi :

Qui est-ce qui cherche le livre ? – Kim kitobni qidiriyapti ?

Qu'est-ce que vous prenez ? Nimani olayapsiz ?

Sodda so'roq olmoshlari

Qui, que, quoi so'roq olmoshlari predloglar bilan qo'llanishi mumkin. Bu olmoshlar rod va sonda o'zgarmaydi.

Qui so'roq olmoshi faqat shaxsni bildiradi :

1.Ega : Qui entre ? –Kim kiriyapti. Qui parle ? Kim gaplashyapti ?

2.Kesimning ot qismi : Qui etes vous ? Kimsiz ?

3. Vositasiz to'ldiruvchi : Qui appelez- vous ? Kimni chaqiryapsiz ? Qui attendez – vous ? Kimni kutyapsiz ?

4. Predlogli (vositali) to'ldiruvchi : So'z tartibi o'zgargan : A qui ecrivez – vous ? Kimga yoyapsiz ? Chez qui allez – vous ? Kimnikiga ketyapsiz ?

Predmetga taalluqli savol berilganda que so'roq olmoshi qo'llanadi :

1. Vositali to'ldiruvchi : Que voulez-vous ? Siz nima istaysiz ? Que cherchez-vous ? Siz nima qidryapsiz ?

2. Kesimning ot qismi : Qu'est-il devenu ? Unga nima bo'ldi ?

3. Shaxssiz fe'lining to'ldiruvchisi: Que se passe-t-il? Nima (gap) bo'lyapti ?

Qo'shma so'roq olmoshlari

Qo'shma so'roq olmoshlarining formalari :

Birlik		Ko'plik	
Lequel	qaysi	lesquels	qaysilar
Laquelle	qaysi	lesquelles	qaysilar

Lequel so'roq olmoshi rod va sonda o'zgaradi. U shaxslar uchun ham, predmetlar uchun ham ishlatiladi. Bu olmosh qator predmet yoki shaxslardan birortasini tanlashda qo'llanadi.

Lequel so'roq olmoshining sintaktik funksiyasi quyidagilardan iborat :

1. Ega : Lequel de ces garçons vous a parlé ? – Bu bolalarning qaysi biri siz bilan gaplashadi ?

2. Vositasiz to'ldiruvchi. Laquelle de ces étudiantes vous connaissez mieux ? Bu talaba qizlarning qaysi birini siz yaxshi taniysiz ?

3. Vositali to'ldiruvchi: A laquelle de vos frères vous avez parlé? – Akalaringizning qaysi biri bilan gaplashdingiz ?

Nisbiy olmoshlar. (Pronoms relatifs)

Nisbiy olmoshlarning boshqa olmoshlardan farqi shundaki, ular ikkita funksiya bajaradi :

1. Nisbiy olmoshlar bosh gapdagi birorta ot yoki olmoshga aloqador bo'ladi ;

Le livre, que je lis est tres interessant. –Men o'qigan kitob juda qiziqarli ekan.

2. Nisbiy olmoshlar gapda bog'lovchi (so'z) rolini o'ynaydi. Ular aniqlovchi ergash gapni bosh gapga bog'laydi. Nisbiy olmoshlar gapda ega, vositasiz va vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi.

Fransuz tilida nisbiy olmoshlar sodda va qo'shma olmoshlarga bo'linadi :

Sodda formalari

Qui, que, quoi, dont, ou

Qo'shma formalari

Birlik

Ko'plik

M.r. J.r.

M.r. J.r

Lequel laquelle

Lesquels lesquelles

Duquel de laquelle

Desquels desquelles

Auquel a laquelle

Auxquels auxquelles

Sodda nisbiy olmoshlarning gapdagi qo'llanishi

Qui, que, dont, quoi, ou sodda nisbiy olmoshlar bo'lib, rod va sonda turlanmaydi, chunki ular o'zgarmas forma hisoblanadi.

Quy - nisbiy olmoshi

Bu olmosh gapda quyidagi vazifalarda keladi :

1. Qui – ega vazifasida kelib, shaxs, predmet yoki mavhum tushuncha bildiradigan ot yoki olmosh o'rnida qo'llanadi :

Je vois l'homme qui m'attend. –Meni kutayotgan odamni ko'ryapman.

Apporte-moi la revue qui est sur la table. –Menga stol ustidagi jurnalni olib keling.

2. Turli predloglar bilan qo'llanib, vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi va shaxsni ifodalaydi :

Le professeur a qui je parle travaille a l'ecole. –Men gaplashayotgan o'qituvchi maktabda ishlaydi.

L'homme avec qui je travaille est mon ami. Men birga ishlayotgan odamdo'stim bo'ladi.

Que – nisbiy olmoshi

Bu olmosh shaxs va predmetni bildiradigan ot o'rnida kelib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Vositasiz to'ldiruvchi:

Montrez-moi l'article que vous ecrivez. Yozayotgan maqolangizni mega ko'rsating.

Ou est le camarade que je cherche ? –Men qidirayotgan o'rtoq qani ?

2. Kesimning ot qismi :

On ne sait pas ce qu'il deviendra. –Uning nim bo'lishini bilib bo'lmaydi.

Quoi – nisbiy olmoshi

Quoi nisbiy olmoshi doim vositali to'ldiruvchi vazifasida qo'llanadi va hamisha predlog bilan birga qo'llanadi.

Voila a quoi il faut faire attention. –Mana shularga e'tibor bermoq kerak.

Je vous dirai par quoi je veux commencer. – Men sizga nimadan boshlashimni aytaman.

Dont – nisbiy olmoshi

Dont –nisbiy olmoshi shaxs va predmetni bildiradigan ot o'rnida ishlatiladi. Aniqlovchi ergash gapda dont olmoshi vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi.

U de qui, de quoi, duquel so'zlarining o'rnini almashtiradi.

Dont – nisbiy olmoshi gapda quyidagi vazifalarda keladi :

1. Otning to'ldiruvchisi :

Voici la maison dont les fenetres sont ouvertes- Mana oynalari ochiq uy.

2. Fe'lning to'ldiruvchisi :

Je lis l'article dont vous avez parle. –men siz gapirgan maqolani o'qiyapman.

3.Sifatning to'ldiruvchisi :

c'est un eleve dont le maitre est fier. O'qituvchisi faxrlanadigan o'quvchi mana shu.

4.Ravishning to'ldiruvchisi :

Il raconte des histoires dont beaucoup sont amusantes. –U shunday voqealarni gapiradiki, ularning ko'pi juda qiziq.

5. Sonning to'ldiruvchisi :

Il a trois freres dont je connais un. –Uning uch akasi bor, ulardan birini men taniyman.

Agar otdan oldin predlog kelsa, dont nisbiy olmoshi otga to'ldiruvchi bo'la olmaydi. Bu holda dont olmoshi o'rnida qo'shma nisbiy olmosh qo'llash zarur.

Ou nisbiy olmoshi

Ou nisbiy olmoshi faqatgina predmetni ifodalaydi.

U gapda o'rin va payt holi vazifasida ishlatiladi :

L'appartement ou nous vivons est tres comfortable (o'rin holi). _biz yashayotgan kvartira juda qulay.

Elle est entree au moment ou Karima prenait le dejeunez (payt holi).-Karima nonushta qilayotganida u kirdi.

Qo'shma nisbiy olmoshlar (Pronom relatifs composes)

Qo'shma nisbiy olmoshlar rod va sonda turlanadi. Ular turlanganda o'rnida kelgan otning rod va son qo'shimchasini oladi. Qo'shma nisbiy olmoshlar shaxs va predmetlarni ifodalovchi o o'rnida keladi.

Qo'shma nisbiy olmoshlar gapda quyidagi vazifalarni bajaradi

1.Vositali to'ldiruvchi:

Je vois un jeune homme avec lequel j'ai fait mes etudes. –Men birga o'qigan yigitni ko'ryapman.

C'est une jeune femme a laquelle je dois parlez.- Bu men gaplashishim kerak bo'lgan ayol.

2.O'rin va payt holi:

Il me donne un papier sur lequel je dois ecrire son adresse. –U menga adresi yozilishi kerak bo'lgan qog'ozni beryapti.

Gap predmet haqida borganida qo'shma nisbiy olmoshni qo'llash shart :

La maison vers laquelle je me dirige est grande. Men ketayotgan uy katta.

L'article auquel je pense est interessant. –Men o'ylayotgan maqola qiziqarli.

Gap shaxs haqida borganida nisbiy olmosh bilan birga qui olmoshi ham qo'llanadi.

En va y ravishli olmosh (Pronom adverbiaux en, y)

En va y ravishli olmosh deyiladi, chunki ular ham ravish, ham olmosh funksiyasini bajaradi.

En – olmoshi

1) En – ravishli olmoshi de predlogi bilan kelgan ot o'rnida qo'llanadi :

Vous servez-vous de ce dictionnaire ? –Siz bu lug'atdan foydalanasizmi ?

Oui, je m'en sers. –Ha, men undan foydalanaman.

Se souvient-il de se accident ? – U bu baxtsiz hodisani eslaydimi ?

Oui, il s'en souvient. Ha, u bu haqda eslaydi.

2) En –quyidagi hollarda ot o'rnida keladi.

a) noaniq artikl bilan qo'llangan ot o'rnida :

Avez-vous accete des revues ? –Siz jurnallar sotib oldingizmi ?

Oui, nous en avons achete. _ha, biz ularni sotib oldik.

b) partitiv artikl bilan kelgan ot'rniga:

prenez- vous du beure?- Siz yog' olasizmi ?

oui, j,en prends. –Ha,, undan olaman.

3)En – olmoshi butun bir gap o'rnida ham keladi :

Cet etudiant parle bien francais. –Bu talaba fransuzchani yaxshi gapiradi.

Le professeur en est content. O'qituvchi undn xursand.

En olmoshining sintaktik fnksiyasi

En – olmoshi fe'ning vositali to'ldiruvchisi yoki o'zidan keyin de predlogini talab etadigan sifatga kesimning o qismi bo'lishi mumkin.

O'zidan keyin de predlogini talab etadigan fe'l va fe'lli birikmalar quyidagilardan iborat:

Parler de	entourer de
Profiter de	avoir besoin de
Douter de	avoir peur de
Se douter de	avoir honte de
Souffrir de	etre sur de
S'approcher de	etre fier de
Se souvenir de	se servir de
Remplir de	s'occuper de
Se moquer de	etre etonne de
Se passer de	etre heureux de
Ornez de	etre plein de
Couvrir de	etre content de
Etre desole de	etre responsable de

En vositasiz to'ldiruvchi

Achetez – vous des bonbons. –J'en achete toujours.- Siz konfet sotib olasizmi ?

Ha, men undan hamisha sotib olaman.

En – vositali to'ldiruvchi:

Vous occupez – vous de cete affaire ? – Siz bu ish bilan shug'ullanasizmi ?

Qui, je m'en occupe. Ha, men bu bilan shugullanaman.

En – shaxsiz fe'ning to'ldiruvchisi :

Y a –til des revues francaises dans votre bibliotheque ? – Oui, il y en a –
Kutubxonangizda fransuzcha jurnallar bormi ? –Ha, ulardan bor.

En – aniqlovchi :

Cette ville est belle, j'en connais toutes les rues. Bu shahar juda go'zal, men uning barcha ko'chalarini bilaman.

En – kesimning ot qismi :

Etes- vous de cet institut?- Siz shu institutdanmisiz ?

Oui, nous en sommes. Ha, biz undanmiz.

Y – olmoshi

y-urg'usiz kishilik olmoshidir. Kesimning vositasiz (a predlogli) to'ldiruvchisi funksiyasida kelgan ot o'rnida ishlatiladi.

A predlogini talab etadigan fe'llar:

Aspirer a	tenir a	se prendre a
Consacrer a	aider qn a faire qch	se preparer a
Consentir a	faire attention a	oblige qn a qch
Repondre a	s' abonnez a	etre pret a
Reflichir a	s'habituer a	participer a
Penser a	s'interesser a	prendre part a

1) Y olmoshi shaxs bildiradigan ot o'rnida hech qachon kelmaydi. Shaxs bildiradigan ot o'rnida urg'uli kishilik olmoshi qo'llanadi :

Pensez – vous a votre examen ? J, y pense.

Pensez –vous a vos parents ? Oui, je pense a eux.

2) Y olmoshi butun bir ga o'rnida ham keladi :

Cet etudiant prend part a cette competition. Bu talaba ushbu musobaqada qatnashadi.

Il y prend part – U unda qatnashadi.

En, y olmoshlarining gapdagi o'rni.

1) En, y – olmoshlari sodda fe'l zamonida fe'ldan oldin, qo'shma zamonda esa ko,makchi fe'ldn oldin ishlatiladi.

J'en prends – Men ularni olaman.

Nous en avons parle – Biz bu haqda gaplashdik.

Vous y avez fait attention. Siz bunga e'tibor berdingizmi ?

En es-tu sur? Sening buhga ishonching komilmi ?

2) Buyruq maylining bo'ishli formasida olmosh fe'ldan keyin keladi :

Repondez – y ? –Bunga javob bering.

Pensez – y ! Bu haqda o'ylab ko'ring !

Parlons –en ! Bu haqda gaplashamiz.

3) Buyruq maylining bo'lishsiz formasida en, y olmoshlari fe'ldan oldin qo'llanadi

N'y fais pas attention !

Ne vous y pensez pas !

En, y – ravishi

En – ravishli o'rin holi funksiyasini bajarib, o'zbek tiliga « o'sha yerdan », deb tarjima qilinadi.

Venez – vous de la bibliotheque ? Kutubxonadan kelyapsizmi ?

Oui, j'en viens. Ha, o'sha yerdan kelyapman.

Y – ravishi o'rin holi bo'lmish a, dans, sur, sans predloglari bilan kelgan ot o'rnida qo'llanadi. Y ravishi « u yega », « bu yer » kabi ma'nolarni anglatadi :

Avez vous ete au theatre aujourd'hui ? bugun siz teatrdamidingiz ?

Non, je n'y ai pas ete. Yo'q, men u yerda emasdim.

Soi – o'zlik olmoshi (Pronom reflechi soi)

Soi –o'zlik olmoshi se olmoshining urg'uli formasidir.

Soi – quyidagi hollarda qo'llanadi :

1) Ega gumon olmoshi (on, chacun, personne, nul, quiconque va boshqalar) bilan ifodalangan bo'lsa :

Personne ne doit pas vivre pour soi

A la lecon chacun travailleait pour soi.

2) Shaxssiz fe'llar bilan :

Il faut toujours répondre pour soi.

Il faut avoir confiance en soi.

3) Fe'lning infinitiv formasi bilan :

N'aimer que soi

4) Soi – olmoshi noaniq sifat bilan qo'llanishi mumkin :

Il fait ce travail soi – meme.

5) Soi – ba'zi turg'un birikma va idiomatik iboralar bilan qo'llanadi :

Soi-disant - -ataladigan.

Cela va de soi –O'z-o'zidan ma'lum, ko'rinib turibdiki.

Gumon olmoshlari (Pronoms indefinis)

Mazmun va formasi turlicha bo'lgan olmoshlar gumon olmoshlariga mansubdir. Ularning ba'zilari olmosh, ba'zilari esa noaniq sifat (aucun, autre, certain, meme, nul, plusieurs, tel, tout) vazifasida keladi.

Gumon olmoshlarning faqat olmosh vazifasida qo'llanadigan formalari quyidagilardan iborat :

Olmoshlar	Tarjimasi
L'un, l'une	bir, bitta
Chacun, -e	har bir
Quelqu'un	
Quelqu'une	hech kim, biror kimsa
Quelques –uns	
Quelques-unes	ba'zilar
L'un, l'autre	biror, boshqa
Quinconque	har bir
On	tarjima qilinmaydi
Personne	hech kim

Rien	hech narsa
Quelque chose	biror narsa, hech narsa

Gumon olmoshlarining gapda qo'llanishi

On olmoshi

On gumon olmoshi doimo 111 shaxs birlikda qo'llanadi. On bir yoki bir nechta shaxsni bildirib, gapda ega vaifasida keladi. On olmoshining ekvivalenti rus tilida ham, o'zbek tilida ham yo'q.

On rentre – Qaytishyapti.

On parle – Gaprishyapti

On umumlashtiruvchi ma'no anglatib, hech qanday aniq shaxsni bildirmasligi mumkin :

On sort. – Chiqishyapti

On telephone – Qo'ng'iroq qilishyapti.

Personne olmoshi

Personne gumon olmoshi gapda bo'lishsiz yuklama ne bilan birgalikda qo'llanadi. Bunda personne ikkinchi inkor ma'nosini anglatadi :

Personne ne voulait sortir –Hech kim chiqib ketishni istamasdi.

Elliptik gaplarda fe'lsiz qo'llanadi :

Qui entre ? Personne. Kim kirdi ? Hech kim

Ba'zan personne bo'lishli ma'no kasb etib, o'zbek tiliga kimdir deb tarjima qilinadi:

Je doute que personne puisse le faire. – Menimcha, bu ish hech kimning qo'lidan kelmaydi.

Rien olmoshi

Fe'l gapda ne yuklamasi bilan kelganda rien gumon olmoshi »hech kim », « hech narsa » ma'nolarini beradi. Bunda rien ikkinchi inkorni anglatadi :

Il ne voyait rien au loin. Uzoqdan u hech narsa ko'rmadi.

Rien ne se passe ici. Bu yerda hech gap bo'layotgani yo'q.

Rien – fe'lsiz elliptik gapda ham bo'lishsizlik ma'nosini bildiradi :

Que fait ce garçon ? – Bu bola nima qiyapti ?

Rien – hech narsa.

Rien – bo'lishli va so'roq gaplarda « biror narsa » , « Hech narsa » ma'nolarini anglatadi :

Elle n'a jamais vu rien de plus beau. U bundan yaxshiroq narsani hech qachon ko'rgan emas.

Chacun (chacune) olmoshi

Bu olmosh umumiy ma'noda qo'llanadi va o'zbek tiliga « har bir » deb tarjima qilinadi.

Chacun gumon olmoshi ani shaxs yoki predmetni bildirib, u bilan rodada moslashadi :

Chacun a son caractere. Har kimning o'z fe'l-atvori bor.

De chacun selon ses capacites a chacun selon ses besoins. Har kimning qobiliyatiga ko'ra, har kimning ehtiyojiga yarasha.

Les etudiantes voulaient repondre chacune a son tour. Talabalar navbat bilan javob berishmoqchi edi.

L'un, l'autre olmoshi

Bu olmosh o'zbek tiliga « ikkovi », « ikkalasi » ma'nolrini ham anglatadi. Bundan tashqari u quyidagi ma'nolarni bildiradi : l'unou l'autre – u yoki boshqasi ni l'un ni l'autre – unisi ham, bunisi han emas.

Je viens voir l'un et l'autre. Men unisini ham, bunisini ham ko'rmoqchiman.

Je ne rencontre pas depuis longtemps ni l'un ni l'autre. Ko'p vaqtdan beri men na unisini, na bunisini ko'ryapman.

L'uun, l'autre olmoshi fe'ldan oldin « birgalik » ma'nosida qo'llanadi :

Ils s'occupaient l'un de l'autre. Ular birga tayyorlanishyapti.

Ils écrivent l'un à l'autre. Ular bir-biriga (xat) yozishyapti.

Certain (certaine) – olmoshi

Certain – gumon olmoshi ko'pincha to'ldiruvchi bilan qo'llanib, predmetga ham, shaxsga ham aloqadorlikni bildiradi. Masalan:

Certains ne voulaient pas quitter la salle. Ba'zilar xonadan chiqib ketishni istamasdi.

Quelqu'un olmoshi

Quelqu'un- noaniq olmoshi bo'lib, o'zbek tilida « kimdir », « biror kimsa » ma'nolarini anglatadi.

Quelqu'un(e) olmoshi birlikda faqat shaxsni bildiradi :

Quelqu'un entre dans le corridor. Kimdir koridorga kirdi.

Ko'plik formalari quelques'uns, quelques-unes shaxs va predmetlarni bildiradi:

Quelques'uns quittaient la salle. Ba'zilar xonadan chiqib ketishdi.

Aucun olmoshi

Bu olmosh odatda bo'lishsiz formadagi fe'l bilan qo'llanadi :

Aucun ne dit cela – Buni hech kim gapirmadi.

Tout olmoshi

Tout gapda olmosh, sifat yoki ravish vazifasini bajaradi.

Tout olmoshi jenskiy rod birlikda « barcha » ma'nosida ishlatiladi :

Tout est clair (hammasi) tushunarli.

Je vois tout . Hammasini ko'rib touribman.

Il est capable de tout . U hamma narsaga qobiliyatli.

Tous, toutes olmoshlari ikki ma'noda qo'llanilishi mumkin:

a) muayyan predmet yoki shaxslar guruhini bildiradi:

J'ai lu les romans de cet auteur: tous sont intéressants.

Il y avait beaucoup de fleurs dans ce jardin toutes étaient belles.

- b) ba,zan tous olmoshi « barcha kishilar, « Hamma » ma'nosini bildiradi.
Tous sont contents – Hamma xursand.

Gumon olmoshlarining sintaktik funksiyalari.

On parle – ega vazifasida.

Quelqu'un entre (Kimdir kiryapti) – ega vazifasida. Je vois quelqu'un (Birovni ko'ryapman) – to'ldiruvchi vazifasida.

Rien

Rien n'est fait Hech narsa qilinmagan- ega vazifasida. Je ne fais rien. Hech narsa qilmayapman- to'ldiruvchi vazifasida

Quelque chose

Quelque chose est arrive ? – biror narsa bo'ldimi ?- ega vazifasida

Je fais quelque chose (autre chose). – To'ldiruvchi vazifasida

Personne

Personne ne vient – Hech kim kelmayapti – ega vazifasida

Je ne rencontre personne- men hech kimni uchratmadim.

Tout

Tous sont venus – Hamma keldi – ega vazifasida

Je raconte tout – Hammasini gapiryapman

Fe'l (Le verbe)

Predmetning harakat va holatini ifodalaydigan so'z turkumi fe'l deyiladi :

a) ish-harakat jarayoni : écrire – yozmoq, arriver – kelmoq ;

b) holat : être – bo'lmoq, se coucher – yotmoq ; holat o'zgarishi : grandir – kattalashmoq. Maigrir – oriqlamoq kabilar fe'l bilan ifodalanadi.

Fransuz tilida fe'lli birikma fe'lga teng bo'ladi.

Avoir soif, faire preuve, avoir tort, faire signe, prendre place.

Fe'llarning yasalishi

Hozirgi zamon fransuz tilida fe'l yasalishi quyidagicha sodir bo'ladi :

Hozirgi zamon fransuz tilida fe'l yasalishi quyidagicha sodir bo'ladi :

1. Fe'llarning birinchi guruhini yasash uchun ko'pincha otga fe'l qo'shimchasi –er qo'shiladi :

Telephone – telephoner ; apport – apporter.

2. Ikkinchi guruh fe'llari asosan sifatga –ir qo'shimchasini qo'shish bilan tashkil topadi:

jaune – jaunir- carg'aymoq: grand – grandir- kattalashmoq.

3. Qo'shimchalardan oldin quyidagi suffikslarni keltirish bilan yasaladi :

a)-aill, -ass, -et, -ill, -in, -onn, -ot.

Bu suffikslar fe'lga turlicha ma'no kasb etadi.

b)–oy suffiksi ot va sifat negiziga qo'shiladi. Coude-coudoyer;, net –nettoyer.

c) –if : simple- simplifier.

d) –is agoniser, legalizer

e) prefikslar qo'shish bilan yasaladi:

venir-revenir; devenir-redevenir.

Fe'lning shaxsli va shaxssiz formalari (Formes personnelles et non personnelles)

Fransuz tilida fe'l formalarining ikki turi mavjud : shaxsli va shaxssiz. Fe'lning shaxsli formalari shaxslarda tuslanadi va gapda ma'lum vazifani bajaradi :

1. Fe'l-kesim :

Je travaille – men ishlayapman.

Mes amis parlent –Do'stlarim gaplashyapti.

2. Fe'l bog'lama qo'shma kesim vazifasida keladi :

Il est officier – U ofitser

Il est devenu immobile – U ishga yaroqsiz bo'lib qoldi.

Harakat nomi (infinitive), sifatdosh(participe), ravishdosh (gerondif) shaxssiz fe'l formalari hisoblanadi.

O'ttimli va o'timsiz fe'llar

(Verbes transitifs et intransitifs)

1. Biror predmetga yo'naltirilgan ish-harakatini bildiradigan fe'llar o'timli fe'llarga kiradi :

Piere prend un livre- Pier kitob sotib olyapti.

O'timli fe'llar ikki guruhga bo'linadi :

a) bevosita o'timli fe'llar to'ldiruvchi bilan predlogsiz birikadi, ya'ni vositasiz to'ldiruvchi bilan bevosita birikadi :

Pierre apporte une revue

Pier keltirdi-jurnal. Pier jurnal keltirdi.

b) vositali o'timli fe'llar predlog orqali birikadi, ya'ni vositali to'ldiruvchi bilan birikadi:

Il se souvient – de cette histoire.

U eslaydi – haqida- bu voqea

U bu voqea haqida eslaydi.

Monter, descendre, sortir fe'llari o'timli va o'timsiz ma'nosida qo'llanishi mumkin :

J'ai monte ma valiz au deuxieme etage. –Men ikinchi qavatga ko'tarildim.

Ba'zi o'timli fe'llar to'dirvchisiz qo'llanadi :

Elle parle _ U gapiryapt

Elle chante – U ashula aytyapti.

2. Boshqa predmetga bevosita o'tmaydigan harakatni bildiradigan fe'llar o'timsiz fe'llardir :

L'enfant marche - Bola qadam tashlayapti.

Cette fillette dort – Bu qizcha uxlayapti.

Fransuz tilidagi fe'l guruhlari

Fransuz tilida fe'llar tuslanishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhdagi fe'llar faqat –er qo'shimchasiga ega : fermer, arriver, danser, chanter etc.

Fransuz tilida birinchi guruh fe'llar miqdori juda ko'pchilikni tashkil etadi.

Birinchi guruh fe'llarining tuslanish xususiatlari

1. O'zagi "g" undoshi bilan tugagan fe'llarning 1-shaxs ko'plik formasi –ons qo'shimchasini qabul qilishdan oldin ularning o'zagiga o'qilmaydigan e qo'shiladi.

Charger-yuklamoq- nous chargeons – biz yuklayapmiz; manger –yemoq- nous mangeons –biz yeapmiz.

2. Negizi c undoshi bilan tugagan fe'llarda –ons ko'plik qo'shimchasidan oldin c (cedille) belgisi qo'yiladi. Bu c ning s bo'lib o'qilishiga imkon beradi.

3. –eter, eler negizli fe'llarda oxirgi undosh ikkilantiriladi:

jeter	appeler
je jette	j'appelle
tu jettes	tu appeller
il jette	il appelle
nous jetons	nous appelons
vous jetez	vous appelez
ils jetteent	ils appellent

eslatma : negizida eler, eter qo'shimchalari bilan tugagan fe'llar tuslanishining barcha formalarida e saqlanib qoladi va l,t harflari ikkilantirilmaydi :

meler – ils melent

feter – ils fetent.

4. –l va –t negizli, sdhunigdek, -v-n-s-m negizli fe'llar o'qilmaydigan qo'shimchadan oldin e qabul qiladi va ochiq (e)ga aylanadi :masdalan, je leve, j'achete, je seme , je mene je pese kabi..

5. 5.-oyer va ayer negizli fe'llarda o'qilmaydigan e dan oldin y harfi i ga aylanadi :

masalan, envoyer – j'envoie

-ayer negizli fe'llar i yoki y harflari bilan ikki xil yoziladi. Shunga ko'ra ularning talaffuzi ham o'zgaradi :

j'envoie je paye, je paie

6. e negizli fe'llarda oxirgi bo'g'indagi e o'qilmaydigan e dan oldin ochiq e ga aylanadi.

Futur simple, Conditionnel present zamonlarida uchraydigan hollar bu qoidadan mustasnodir.

Harakat nomi formasida –ir q'shimchasi bo'lgan fe'llar ikkinchi guruhga kiradi..

11 guruh fe'llari Present de l'indicatif da quyidagicha tuslanadi:

je finis nous finissons

tu finis vous finissez

il finit ils finissent

Uchunchi guruh fe'llari asosan –re qo'shimchasiga ega bo'ladi. Ammo ular turli qo'shimchalar (-ir, -er) bilan ham kelishi mumkin.

Masalan, aller, faire, avoir, etre, ecrire.

Fe'ning grammatik kategorizalari

Mustaqil so'ay turkumi bo'lgan fe'äl quizdagi grammatik kategorizalarga ega.

1.Mazl kategorizasi Mode

2.Zamon kategoriyasi.

3.Nisbat kategoriyasi

4. Shaxs va son kategoriyasi.

AVOIR va ETRE KO'MAKCHI FE'LLARI

Avoir va etre ko'makchi fe'llari mustaqil qo'llanilishidan tashqari o'tgan zamonda barcha fe'llarning qo'shma zamon shaklini yasah uchun ham xizmat qiladi. Avoir va etre qo'shma zamon tarkibiga kirib, o'z mustaqil ma'nosini yo'qotadi.

Ular fe'l zamonining shaxs va sonini belgilaydi. Asosiy fe'l ma'nosini esa Participe passe o'tgan zamon sifatdoshi ifodalaydi:

Il a un cahier. Il a fait ce travail.

Il etait a cette reunion. Il etait sorti.

Harakat yoki holat o'zgarishini bildiradigan ba'zi o'timsiz fe'llar yoki majhul va olmoshli fe'l shakllari o'tgan zamonda etre fe'li bilan tuslanadi.

Etre ko'makchi fe'li bilan tuslanadigan fe'llarning Participe passe si ega bilan rod va sonda moslashadi.

Il est rentre trop. U ancha kecg qaytdi.

Elle est rentree a la maison a sept heures du soir. U uyiga kech soat 7 da qaytdi.

Nous sommes contents de notre conge. Biz ta'tilimizdan mamnunmiz.

Quyidagi fe'llar o'tgan zamonda etre ko'makchi fe'li bilan tuslanadi.

Aller – bormoq

Venir – kelmoq

Arriver – qaytmoq

Partir- jo'namoq, ketmoq

Entrer- kirmoq

Sortir – chiqmoq

Naitre – tug'ilmoq

Mourir – o'moq

Montrer – turmoq, ko'tarilmoq

Descendre – tushmoq, qo'nmoq, pastlamoq

Rester – qolmoq

Tomber – tushmoq

Fe'llarda bo'shsiz va so'roq shakllarining yasalishi (Formation de la forme negative et interrogative)

Fransuz tilida bo'lishsiz shakl inkor yuklamalari ne ...pas yordamida yasaladi.

Sodda zamonlarda ne yuklamasi fe'ldan oldin pas yuklamasi fe'ldan keyin qo'yiladi. Gapda inkor bildiradigan ravish yoki olmosh bo'lsa, pas yuklamasi umuman tushib qoladi: Il ne connait point cet homme. U bu odamni mutlaqo tanimaydi.

Il ne parle guere francais. U deyarli fransuzcha gapirmaydi.

Ils ne fond rien. Ular hech narsa qilishmaydi.

Elle ne fait jamais ce travail. U bu ishni hech qilmaydi.

Nous ne voyons personne ici. Biz bu yerda hech kimni ko'rmaymiz.

Fransuz tilida fe'llarning so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

1) inversiya yordamida, ya'ni olmosh-egani kesimdan keyin qo'yib (-) chiziqcha orqali yoziladi:

Ou entre-t-il? U qayoqqa kiriyapti?

Que fait –T-elle/ u nima qilyapti?

2) est-ce que so'roq oboroti yordamida. Bunda so'z tartibi o'zgarmaydi: est-ce que vous travaillez ici? Siz shu yerda ishlaysizmi?

ANIQLIK MAYLI (MODE INDICATIF)

Mode indicatif – o'zbek tilidagi aniqlik mayli kabi ish-harakatining aniq sodir bo'layotganligini, sodir bo'lishi yoki bo'lib o'tganligini bildiradi.

Masalan: il va a la bibliotheque- u kutubxonaga boryapti.

Il ira a la bibliotheque- u kutubxonaga boradi.

Il est alle a la bibliotheque – u kutubxonaga boradi.

Aniqlik maylining zamonlari (Temps de l'indicatif)

Present de l'indicatif (Hozirgi zamon)

Present de l'indicatif – ish-harakatining nutq momentida bajarilayotganligini bildiradi: Nous apprenons le francais.

A huit heures moins cinq les enfans se ranger par dex devant la porte et l'on passe l'inspection des mains (*P.Gamara*)

Present de l'indicatif ning yasalishi

Present de l'indicatif fe'l o'zagiga quyidagi shaxs – son qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi

1-guruh uchun	fe'llari	2-guruh uchun	fe'llari	3-guruh uchun	fe'llari
1 shaxs – e, -ons		1 shaxs -is, --issons		1 shaxs -s, ons	
11 shaxs –es, -ez		11 shaxs –is, -issez		11 shaxs –s, -ez	
111 shaxs –e, -ent		111 shaxs – it, - issent		111 shaxs –t (d), - ent	

Present de l'indicatif ning qo'llanilishi

Present de l'indicatif quyidagi hollarda qo'llanadi:

1) Ish-Harakatining nutq momentida bajarilayotgaligini ifodalash uchun:

On sonne. La lecon commence. Qo'ng'iroq chalinayapti/ dars boshlanayapti.

2) Ish – harakatining davom etayotganligi yoki takrorlanayotganligini ifodalash uchun: Chaque matin je fais de la gymnastique. Har kuni ertalab gimnastika bilan shug'ullanaman.

3) Ish-harakatining doimiyligini ifodalash uchun:

Le Soleil se leve a l'Orient. Quyosh sharqdan chiqadi.

4) Yaqin – kelasi ish-harakatini ifodalash uchun:

Nous partons ce soir. Biz kechqurun jo'naymiz.

MODE IMPERATIF (BUYRUQ MAYLI)

Buyruq mayli buyruq, taqiq, iltimos, kengashish yoki ihs-harakatni bajarishga undash kabi ma'nolarni anglatadi. Fransuz tilida buruq mayli Present de l'indicatif dagi ikkinchi shaxs birlik, birinchi va ikkinchi shaxs ko'plikdagi fe'ldan yasaladi. Buyruq mayli yasalganda kishlik tushirib qoldiriladi.

I n d i c a t i f

I m p e r a t i f

Tu fermes la porte.

Ferme la porte.

Nous fermons la porte.

Fermons la porte.

Vous fermez la porte.

Fermez la porte.

Passe compose (O'tgan zamon aniq fe'li)

Passe compose tugal o'tgan ish-harakatini anglatib, o'zbek tilidagi o'tgan zamon aniq fe'liga mos keladi. Bu zamon suhbatda, ko'chirma gaplarda, gazeta xabarlari va xat bayonlarida qollanadi:

Passe compose ning yasalishi

Passe compose murakkab zamonini yasah uchun *avoir* yoki *etre* ko'makchi fe'llari Presen de l'indicatif da olinib, asosiy tuslanuvchi fe'lning o'tgan zamon sifatdoshi – Participe passe shakli olinadi:

J'ai lu ce livre. Men bu kitobni o'qidim.

Elle est entree a l'institut. U institutga kirdi.

Passe compose ning qo'llanilishi.

Passe compose quyidagi hollarda qo'llanadi:

1) Ish-harakatining nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilganligini ifodalashda;

Il comprend le francais; il l'a etudie a l'ecole. U fransuz tilini tushinadi; u uni maktabda o'rgangan.

2) Nutq tugagan paytni va ketma-ket kelgan ish-harakatni ifodalashda:

As-tu pris ce livre a la bibliotheque? Oui, je l'ai pris.

Bu kitobni kutubxonadan oldingmi? Ha, men uni oldim.

3) gazeta va journal maqolalaridagi tarixiy va siyosiy voqealarni ifodalashda:

P.Curie et Marie Curie ont decouvert le radium.

P.Cyuri va Mariya Kyuri radiyni kashf etdilar.

Imparfait de l'indicatif (O'tgan zamon davom fe'li)

Imparfais sodda o'tgan zamon bo'lib, u o'zbek tilidagi o'tgan zamon davom fe'liga mos keladi.

Imparfait de l'indicatif ning yasalishi

Imparfait zamonini yasahs uchun Present da tuslangan fe'llarning birinchi shaxs ko'pligi olinib, undagi shaxs-son qo'shimchalari tushirib qoldiriladi va ular o'rniga Imparfait zamonining shaxs va son qo'shimchalari qo'shiladi.

Imparfait dagi shaxs va son qo'chimchalari hamma guruh fe'llari uchun bir xil bo'lib, ular quyidagichadir: -ais, -ais, -ait, -ions, -iez, -aient.

Imparfait de l'indicatif ning qo'llanishi

Imparfait quyidagi hollarda qo'llanadi:

1. Ish-harakatining yoki holatining o'tgan zamonida davom etib turganligini, davomiyligini ifodalash uchun:

Il etudiait le francais. U fransuz tilini o'rganib yurardi.

2. Ish-harakatining o'tgan zamonda takrorlanib turganligini anglatish uchun.

Masalan: D'habitude, je me levais a 7 heures du matin. Odatda men soat 7 da turar edim.

3. O'tgan zamonda ikki ish-harakatning bir vaqtda bajarilganligini ifodalash uchun;

Masalan: Pendant que les enfants jouent dans la cour, la mere lisait une revue. Bolalar hovlida o'ynayotganlarida, onasi journal o'qir edi.

4. O'tgan voqealarni tasvirlashda qo'llaniladi.

Masalan: Le ciel etait bleu, le soleil brillait gaiment et le vent soufflait. C'etait le printemps. Havo musaffo edi, quyosh porlab turar edi, shamol esardi. Bu – bahor fasli edi.

5. Shart ergash gaplarda si bog'lovchisidan keyin Conditionnel present o'rniga Imparfait ishlatiladi.

Masalan: Si tu etait plus attentif, tu ne ferais pas fautes. Diqqat-e'tiborliroq bo'lganida edi, xato qilmagan bo'larding.

Passe simple

Passe simple sodda o'tgan zamon bo'lib, u hozirgi zamon bilan bog'liq bo'lmagan, tugallangan ish-harakatini anglatadi. U o'zbek tilidagi o'tgan zamon aniq fe'lga to'g'ri keladi. Passe simple zamoni fe'l o'zagiga quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi:

1-guruh uchun	fe'llari	2-guruh uchun	fe'llari	3-guruh uchun	fe'llari
1-shaxs -ai		1-shaxs -is		1-shaxs -is, -us	
2-shaxs -as		2-shaxs -is		2-shaxs -is, -us	
3-shaxs -a		3-shaxs -it		3-shaxs -it, -ut	
1-shaxs -ames		1-shaxs		1-shaxs -imes, -umes	
2-shaxs -ates		2-shaxs		2-shaxs -ites, -utes	
3-shaxs -erent		3-shaxs		3-shaxs -irent, -urent	

Passe simple ning qo'llanishi

Passe simpl tarixiy tugallangan o'tgan zamon bo'lib, voqealarni bayon qilishda va yozma nutqda qo'llaniladi.

Passe simple og'zaki nutqda ishlatilmaydi. Og'zaki nutqda Passe simple o'rniga Passe compose ishlatiladi. Passe simple quyidagilarni ifodalaydi:

1. Ish-harakatining aniq bir paytda bo'lib o'tganligining:

Alicher Navoiy naquit a Herat.

2. Bir nechta tugallangan harakatning ketma-ket sodir bo'lganligini: Elle choisit une orange, la pela et la mangea. – U bir apelsin tanladi, uni tozaladi-da, yeb yubordi.

Plus que parfait de l'indicatif

Plus que parfait de l'indicatif murakkab zamon bo'lib, ish harakatning o'tgan zamondagi boshqa biror ish-harakatdan oldin bajarilganligining anglatadi. **Plus que parfait de l'indicatif** ergash gaplarda qo'llansa, o'zbek triligga ko'pincha o'tgan zamon sifatdoshi bo'lib tarjima qilinadi. Sodda gaplarda esa uzoq o'tgan zamonga mos keladi.

Plus que parfait de l'indicatif ning yasalishi

Plus que parfait de l'indicatif Imparfait zamonida tuzlangan avoir yoki etre yordamchi fe'liga asosiy tuzlanuvchi fe'ning Partcipe passe fshaklini qo'shish yo'li bilan yasaladi:

J'avais passe	nous avions passe
Tu avais passe	vous aviez passe
Il avait passe	ils avaient passe
Elle avait passe	elles avaient passe

Future simple (Kelasi zamon)

Future simple sodda kelasi zamon bo'lib, kelajakda bajariladigan ish-harakatini ifodalaydi. Bu zamon o'zbek tilidagi kelasi zamon aniq fe'liga to'g'ri keladi.

Masalan: je vous parlerai de mon voyage. Men sizlarga sayohatim haqida gapirib beraman.

Future simple ning yasalishi

Future simple zamoni fe'lning noaniq formasiga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi:

1- shaxsda –ai	-ons
2-shaxsda -as	-ez
3-shaxsda -a	-ont

Masalan: je passerai	nous passerons
Tu passeras	vous passerez
Il passera	ils passeront
Elle passera	elles passeront

Ba'zi 111 guruh fe'llari Futur simpl da tuzlanganda ularning negizi o'zgaradi:

Avoir – j'aurai	vouloire – je voudrai
Etre – je serai	savoir – je serai
Envoyer –j'enverrai	pouvoir – je pourrai
Aller – j'irai	devoir – je devrai
Venir – je viendrai	recevoir – je recevrai

Tenir – je tiendrai apercevoir – j’apercevrai

Courir – je courrai voir – je verrai

Mourir – je mourrai falloir – il faudra

Faire – je ferrai pleuvoir – il pleuvra

Future simple quyidagi hollarda qo’llaniladi;

1. Ish-harakatining so’zlanib turgan paytga nisbatan keyin bajarilishini ifodalaydi:

Dans deux ans il sera professeur. Ikki yildan keyin u o’qituvchi bo’ladi.

SHART MAYLI (MODE CONDITIONNEL)

Conditionnel – quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1) biror sharoitga bogliq bo’lmagan faraz, mo’ljal qilingan, mumkin bo’lgan harakatni anglatadi: paule, tu devrai preparer la carriere forestiere.(*P.V. Couturier*). Je voudrai voir ce film – Men bu filmni ko’rishmi istardim.

2) Ma’lum sharoitga bogliq bo’lgan, mumkinlik, imkoniyat ma’nolarini anglatadi: S’il etait ici, il vous dirai tout. – Agar u shu yerda bo’lsa, sizga hammasini aytib berardi.

Conditionnel Present

Conditionnel fe’lning infinitiviga Imparfait zamonining qo’shimchalarini qo’shish bilan yasaladi.

Je chanterais nous chanterions

Tu chanterais vous chanteriez

Il chanterait ils chanteraient

Elle chanterait elles chanteraient

Conditionnel Passe

Conditionnel Passe avoir va etre ko’makchi fe’lining Conditionnel present formasiga mustaqil fe’lning Participe passe formasini qo’shish bilan yasaladi.

J’aurais chante nous aurions chante

Tu aurais chante vous auriez chante

Il aurait chante ils auraient chante

OLMOSHLI FE'LLAR (Verbes pronominaux)

Harakat nomi (infinitiv) shaklida se olmoshi bo'lgan fe'llar olmoshli fe'llar deyiladi. Olmoshli fe'llar ikki olmosh bilan tuslanadi: olmosh-ega vs olmosh-to'ldiruvchi bilan.

Qo'shma zamonlarda olmoshli fe'llar etre ko'makchi fe'li bilan tuslanadi. Olmoshli fe'llar tuslanish turiga ko'ra uchala guruhga ham mansubdir: se reposer, se rejouer, se servir kabilar.

Olmoshli fellarning turlari

1. O'zlik fe'llar (verbes reflexifs)
2. Birgalik-o'zlik fe'llari (Verbes reciproques).
3. Asl o'zlik fe'llari (Verbes essentiellement pronominaux).
4. Olmoshli fe'llarning majhul ma'nolari.

1. O'zlik fe'llari (verbes reflexifs)

O'zlik fe'llari ega bir vaqtning o'zida ish-harakatning ham cubyekt, ham obyekt bo'lib kela oladigan xususiyatni ifoda etadi: Pierre se lave. Piyer yuvinyapti.

Bu fe'l bilan kelgan olmosh yo vositasiz to'ldiruvchi, yo vositali to'ldiruvchi bo'la oladi.

O'zlik fe'llarining o'tgan zamon sifatdosh shakli vositasiz to'ldiruvchi bilan moslashadi: elle s'est habillee. U kiyindi.

2. Birgalik – o'zlik fe'llari (Les verbes reciproques)

Bu fe'llar ikki yoki undan ortiq obyekt o'rtasidagi o'zaro harakatni ifodalaydi. Bu fe'llar bilan qo'llanadigan olmoshlar vositasiz yoki vositali bo'lishi mumkin. Bu fe'llarning o'tgan zamon sifatdosh shakli vositasiz to'ldiruvchi bilan moslashadi, vositali to'ldiruvchi bilan esa moslashmaydi:

Ils se sont aimes. Ular bir-birlarini sevadi.

Ils se sont regardes. Ular bir-birlariga qaraydi.

3. Asl-o'zlik fe'llari (Les verbes essentiellement pronominaux)

Bu guruhga kiruvchi fe'llarning xususiayati shundaki, se olmoshi na vositali, na vositasiz to'ldiruvchi bo'la oladi. U hech qanday grammatik funktsiya bajarmaydi. U faqat fe'l oldida yuklama xizmatini o'taydi.

Fe'llarning bu guruhida:

a) hamisha olmoshli funktsiya bajaradigan tubandagi fe'llarning farq qilishi zarur:

s'evader – qochmoq

s'ecrier – baqirmoq

s'envoler – uchmoq

s'enfuir – qochmoq

s'emparerer – egalik qilmoq

se moquer – kulmoq

se mefier – shubha qilmoq

se repentir – pushaymon bo'lmoq

se souvenir eslammoq

b) olmoshli va olmoshsiz fe'llar funktsiyasini bajaradigan fe'llar:

repeter – takrorlamoq

se repeter – takrorlanmoq

faire – bajarmoq

se faire – bajarilmoq

remplir – to'ldirmoq

se remplir – to'ldirilmoq

voir – ko'rmoq

se voir - ko'rinmoq

Ba'zi hollarda fe'lning olmoshli shakli fe'l ma'nosining o'zgarishiga ta'sir qiladi:

Douter – shubhalanmoq, shubha qilmoq

Se douter – gumon qilmoq

Apercevoir – fahmlamoq, ko'rib qolmoq

S'apercevoir – fahmlamoq, payqamoq

4. **Olmoshli fe'llarning majhul ma'nolari** (Verb de sens passif)

Olmoshli fe'llar majhul ma'no anglatishi mumkin. Bunda subyekt ish-harakat bajarmaydi. Unga yo'naltirilgan harakatni o'zida aks ettiradi, xolos:

La riviere se voit de loin. Daryo uzoqdan ko'rinadi (Ko'rinib turadi)

Cet article se lit facilement. Bu maqola oson o'qiladi.

Le travail se fait vite. Ish tez bo'lyapti.

SIFATDOSH (PARTICIPE)

Sifatdoshmimg uch shakli mavjud:

1. Hozirgi zamon sifatdoshi (Participe present: lisant, sortant)
2. O'tgan zamon sifatdoshi (Participe passe; lu, sorti,).
3. O'tgan zamon qo'shma sifatdoshi (Participe passe compose: ayant lu, etant sorti).

Sifatdosh fe'lining shaxssiz shakli bo'lib, birinchidan sifatga yaqinlashadi va otni aniqlab, aniqlovchi vazifasini bajaradi, ikkinchidan, sifatdosh fe'l shakli bo'lib, ish-harakatini yoki holatini bildiradi:

Le professeur parlent d'une voix basse. O'qituvchi ular bilan sekin gaplashayapti.

La robe bien faite. Yaxshi tikilgan ko'ylak.

Hozirgi zamon sifatdoshi (Participe present)

Participe present fe'lining shaxssiz shakli bo'lib, boshqa bir ish-harakat bilan bir paytda bajarilayotgan ish-harakatni bildiradi. U o'zi taalluqli bo'lgan ot yoki olmoshning belgisini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Participe present ning yasalihi

Present de l'indicatif hozirgi zamon 1 shaxs ko'plik sondagi – ons qo'shimchasi tushirib qoldirilib, uning o'rniga – ant qo'shimchasini qo'shish bilan Patcipe present yasaladi:

Nous chantons – chantant

Nous finissons – finissant

Nous sortons – sortant

Participe present gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) aniqlovchi: Le pere souriant a son fils. U o'g'liga kulib boqayotgan ota.

b) kesimning ot qismi:

Je le trouvai lisant son journal. Men uni gazeta o'qiyotganida uchratdim.

O'tgan zamon sifatdoshi (Participe passe)

Participe passe fe'l tuslanishining qaysi guruhiga taalluqligiga qarab yasaladi.

1 guruhdagi fe'lning Participe passe si unfinitiv negiziga – e qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:

Parler – parle

Demander – demande

11 guruhdagi fe'llarning Participe p[asse si unfinitiv negiziga –i qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi:

Finir – fini

Choisir – choisi

111 guruh fe'llarining Participe passe si turli shaklda bo'ladi. Shuning uchun ularni yod olishga to'g'ri keladi.

Participe passe ning qo'llanilishi

Participe passe avoir yoki etre ko'makchi fe'llari bilan yoki ularsiz qo'llanadi. Ko'makchi fe'l bilan qo'llangan Participe passe qo'shma zamon tarkibiga kiradi: Je suis entre. Men kirdim. Karim a pris le stylo . Karim ruchkani oldi.

Ko'makchi fe'llarsiz qo'llangan Participe passe ma'nosi jihatdan sifatga yaqinlashadi. U o'zi aloqador bo'lgan ot bilan rod va sonda moslashadi. Bu holda Participe passe aniqlovchi vazifasini bajaradi:

Les livres lus. O'qilgan kitoblar. Les lettres ecrites . Yozilgn xatlar.

O'tgan zamon qo'shma sifatdoshi (Participe passe compose)

Participe passe compose bir ish-harakatdan oldin bajarilgan, tugallangan ish-harakatni bildiradi:

Ayant fini ses etudes il part. O'qishni tamomlab, u ketadi

Ayant fini ses etudes il partira. O'qishni tamomlab, u ketmoqchi.

Ayant fini ses etudes il est parti. O'qishni tamomlab, u ketdi.

RAVISHDOSH (GERONDIF)

Gerondif ish-harakat bildiradigan fe'l shaklidir. Gerondif o'zgarmaydiganm (Turlanmaydigan) so'z turkumi hisoblanadi.

En yuklamasi gerondif ga xos belgi sanaladi.

1. Gerondif gapning egasi bajaradigan ish-harakat bilan bir paytdagi ish-harakatni ifodalaydi:

Chaque soir catherine frottait le parquet en dansant. Har kuni kechqurun Katerina raqs tushib parketni artardi.

2. Ayant, etant shakllaridan oldin en yuklamasi hech qo'llanilmaydi:

La petite entra dans la chambre ayant une poupe a la main. Kichkintoy qo'lida qo'g'rchoq uchlab xonaga kirdi.

3. Gapda Gerondif turli xil hol vazifasini bajaradi:

a) paytni bildiradi: en voyant son fils elle a souri. O'g'lini ko'rib u tabassum qildi.

b) shartni bildiradi: En travaillant d'avantage, il pourrait terminer ce travail demain. Yaxshi ishlasa, u bu ishni ertaga tugatadi.

c) holatni bildiradi: Il se tourna vers ma niece sourit discrettement en inclinant legerement le buste. (Vercors). Gavdasini bukib, u mening jiyanimga qaradi va asta kulib qoydi.

4. Gerondif dan oldin tout ravishi kelib, ish-harakatining bir paytda bajarilishi va uzluksizligini ifodalaydi:

Tout en causant ils traverserent la rue. Suhbatni davom ettirib, ular ko'chani kesib o'tishdi.

RAVISH (ADVERBE)

Ravish mustaqil so'z turkumi bo'lib, fe'l ifodalagan quyidagi belgilarni bayon etish uchun xizmat qiladi:

Ish-harakatning holatini ifodalaydi. Il parle vite. U tez gapiryapti.

Holatning boshqa turini anglatadi: Il dort tranquillement. U tinch uxlayapti.

Xususiyatni anglatadi: Elle est très aimable. U juda xushmuomalali.

Ravishlarning ma'no jihatdan turlari

Ma'nosiga ko'ra ravishlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1.Holat ravishi. Sa mere gravement malade. Uning onasi og'ir kasal.

2.Daraja-miqdor ravishi: beaucoup, peu, aussi, trop. Elle parle beaucoup. U ko'p gapiradi.

3.O'rin ravishi: ici, loin.

Il habite loin de l'institut. U institutdan uzoqda yashaydi.

4.Payt ravishi: tot, tard, maintenant: Elle est venue tard. – U kech keldi.

5. Sabab ravishi: Le train arrive à temps. Poyezd vaqtida kelyapti.

6. Tasdiq va inkor bildiradigan ravishlar: non, oui.

PREDLOG (PREPOSITION)

Predlog so'zlar, so'z guruhlari va gap bo'laklari o'rtasidagi turli munosabatlarni bildiradigan so'z turkumidir.

Predloglar so'zlar o'rtasidagi quyidagi asosiy munosabatlarni anglatadi:

1. masofa: Nous entrons dans la cour de l'école. Biz maktab hovlisiga kiramiz.

Il s'est dirigé vers cette maison blanche. U oq uy tomonga yo'l oldi.

2.Payt: Pendant la guerre il est devenu soldat. Urush davomida u soldat bo'ldi. depuis deux ans il habite Moscou. U ikki yildan beri Moskvada turadi.

3.Aniqlovchi: Je vois une grande statue de marbre. Men katta marmar haykalni ko'ryapman.

Predloglarning tuzilishiga ko'ra turlari

Fransuz tilida predloglarning quyidagi turlari mavjud:

Sodda predloglar:

A –ga, ichiga, tomon, -gacha

Après – keyin

Avant – gacha, oldin

Avec – bilan

Chez – ga, oldin, yonida
Contre – qarshi
Dans - -da, - ga
De – dan, haqida, to'g'risida
Depuis – beri, buyon
Des – bilan
Devant – oldin
En, - ga, ichiga, ichida
Entre – orasiga, orasida
Excepte – tashqari
Maigre – qaramay
Par – orqali
Parmi – orasida
Pendant – davrida
Pour – uchun, -ga
Puis de – yonida, oldida
Sans – siz
Sous – tagida, ostida
Sur- ustida, ustiga
Vers – tomon. Sari

Qo'shma predloglar

A cause de – sababli, tufayli
A cote de – yaqinida
Au dedant de – ichida
Au dessous de – tagida
Au-dessus de – ustida
Au lieu de- o'rnida
Aupres de – yaqinida
Autour de – atrofida
Au devant de – uchun

D'apres – muvofiq, binoan

En face de – ro'baro'

Grace a – tufayli

Hors de – tashqarida

Jusqu'a – gacha, guncha

Le long de – bo'ylab

Loin de – uzoq, - da

Pres de – yaqin

Quant a – menimcha

Vis-a-vis- ro'baro', ro'para

Predloglarning ishlatilishi

A predlogi

1. A predlogi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

a) payt: Je vais a l'institut a huit heures du matin. Men institutga ertalab soat 8 da boraman.

b) o'rin: Mes parents sont a Tachkent. Mening ota-onam Toshkentda

c) holat: Il est venu a pied. U piyoda keldi.

2. A predlogi vositali to'ldiruvchi bilan birikadi: Je m'interesse a ce probleme.

Men shu masalaga qiziqaman.

3. Quyidagi munosabatlarni ifoda etadi:

a) mo'ljal: Une tasse a cafe. Kofe idishi. Une table a ecrire . Yozuv stoli.

b) sifat: Une fiette aux yeux claire. Ko'zi chaqnab turgan qiz.

4. Predlog sifatga to'ldiruvchini biriktiradi: Un texte facile a lire. O'qishga oson matn.

DE predlogi

DE predlogi gapda quyidagi vazifalarda qo'llanadi:

1. Vositali to'ldiruvchi: Je me debarasse de cette habitude. Men bu odatimni tark etyapman.

2. Turli holatni ifodalaydi:

a) payt: Je me leve de bon matin. Men erta turaman.

- b) o'rin: Elle revient de Paris. U paryждан kelyapti.
- c) holat: Elle parle d'une voix calme. U mayin ovozda gaplashayapti.
- d) sabab: Elle chante de joie. U xursandligidan kuylardi.

3. DE predlogi turli belgilash ma'nolarini anglatadi:

- a) mo'ljal: Une salle d'Etude. Kutish zali. Une salle de spectacle. Tomosha zali.
- b) qarashlilik: Le livre de mon pere. Otamning kitobi. Le cahier de mon frere. Akamning daftari.

EN predlogi

EN predlogi gapda quyidagi hollarda qo'llanadi:

- a) o'rinni bildiradi: Mon frere travaille en usine. Akam zavodda ishlaydi. Sa soeur vit en Allemagne. Uning opasi Germaniyada yashaydi.
- b) Paytni bildiradi: Elle fait ce travaille en deux heure. U bu ishni ikki soatda bajaradi.
- c) Yil va oy nomlari oldida qo'llanadi: En 1970 j'ai termine L'Universite. 1970 yilda men universitetni bitirdim. En juillet j'ai mon conge. Men ta'tilim iyul oyida.
- d) Holatni bildiradi: Il faut agir en commun. Birgalaikda harakat qilish kerak.
- e) Materialni bildiradi: Une robe en soie. Shohi ko'ylak.

Dans predlogi

1) Bu predlog ish- harakatsodir bo'lgan yoki predmet joylashgan makonning chegaralanganligini bildiradi: Je suis dans la chambre. Men xonadaman. Le cahier est dans la serviette. Daftar sumkada.

2) Dans predlogi harakatning sodir bo'lishi paytini ko'rsatadi: Ils arrivent dans une semaine. Ular bir haftadan keyin kelishadi.

3) Holat bildiradi: Elle est dans une colere. U g'zabda.

Chez predlogi

Chez predlogi shaxsga nisbatan qo'llanadi. U o'zbek tilidagi „yonida“, „oldida“, „yoniga“, „oldiga“ ko'makchilariga to'g'ri keladi; Pierre est alle chez sa mere. Piyer onasinikiga ketdi.

Par predlogi

Par predlogi gapda: 1) majhul nisbatdagi fe'ldan keyin vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi: Elle a ete interrogee par le professeur. U o'qituvchi tomonidan so'raldi.

3) turli munosabatlarni anglatadi:

a) o'rin: Je le vois par la fenetre ouverte. Men uni ochiq derazadan ko'rib turibman.

b) Holat va daraja; Elle tient la fiette par la main. U qizni qo'lidan ushlab turibdi. J'arrive par le train de midi. Men kunduzgi poyezdda kelaman.

Pour predlogi

Pour predlogi quyidagi munosabatlarni bildiradi:

a) o'rin: L'avion part pour Moscou. Samolyot Moskvaga jo'naydi.

b) Payt: J'ai le billet pour dimanche. Yakshanba kuniga biletim bor.

c) Maqsad: Je suis ici pour vous parler. Siz bilan gaplashish uchun shu yerga keldim.

d) Sabab: Les amis l'adorent pour son caractere. Fe'l – atvori tufayli do'stlar uni dildan sevadi.

e) Mo'ljal: Une chambre pour enfants. Bolalar xonasi. Un salon pour dames. Ayollar saloni.

Sur predlogi

1) sur predlogiyuzada joylashgan predmetni yoki ish-harakatini yo'naltirilgan joyni bildiradi. Sur o'rin holini ifoda etadi: l'eleve met son cahier sur un pupitre. O'quvchi daftarini parta ustiga qo'yadi. Les touristes monterent sur la tour Eiffel. Sayyohlar Eyfel minorasiga ko'tarilishdi.

2) Xabar, fikr mazmunini anglatadi: bunda sur predlogi vositali to'ldiruvchi talab etadi: Il nous a informe sur les evenements en France. Bizga u Fransiyadagi voqealar to'g'risida xabar berdi.

Sous predlogi

Sous predlogi quyidagi munosabatlarni ifoda etadi:

a) o'rin: L'enfant le cache sous la table. Bola uni stol tagiga yashiryapti.

b) Payt: Sous le Pouvoir independance l'Ouzbekistan est devenu la republique industrielle.

UNDALMA (INTERJECTION)

Turli his-hayajon, tasodifiy ta'sir bildiradigan so'z turkumi undalma deyiladi.

Fe'l, ot, sifat, ravish kabi ba'zi so,z turkumlari undalma vazifasida kelib, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

buyruq: Silence! –Tinchlaning! Stopp! – To'xtang!

iltimos : **Au secours!** – **Yordamga!**

Ogohlantirish: Attention! Diqqat!

Ma'qullash: Bien.

E'tiroz: Comment ! –Qanday!

Ajablanish: Quoi! Shundaymi?

Shubha: Pas possible! – Iloji yo'q!

BOG“LOVCHI (LA CONJUNCTION)

Bog'lovchilar yordamchi so'z bo'lib, butun gaplarni yoki alohida gap bo'laklarini bog'lash uchun xizmat qiladi.

Fransuz tilida tuzilishiga ko,ra quyidagi boglovchilar mavjud:

Sodda bog'lovchilar:

et-va, ou –yoki, ni –na, quand – da, qachon, si – agar, mabodo, que - nima

Qo'shma bog'lovchilar:

D'ailleurs – aytgandek; ainsi que – shunga o'xshash

C'est-a-dire – ya'ni ; cependant – ammo, biroq

Alors – o'shanda; aussitot que - bilan

Enfin – oxir, axir: tandis que – qaramay

Teng bo'lovchilar

Teng bo'lovchilar gapning uyushiq bo'laklarini, shuningdek, gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi va qo'shimcha ma'no anglatadi.

Et – va

Ou – yoki

Ni – na

Mais – ammo, lekin

Car – chunki, negaki

Donc – shunday qilib, xullas

Cependant – bir oz

Pourtant – biroq

C'est pourquoi – shuning uchun

Ergashtiruvchi bog'lovchilar

Ergashtiruvchi bo'lovchilar bosh gapni ergash gap bilan bo'lashdan tashqari turli munosabatlarni bildiradi.

Bog'lovchilar	Tarjimasi	Ergash gaplar
Que	-ni	Ega ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap
Aussitot que Pendant que Depuit que Avant que	Hamon -da Beri, buyon Oldin, avval	Payt ergash gap
Parce que	chunki	Cabab ergash gap
Comme	Qay tarzda	Hol ergash gap
Pour que	Uchun, maqsadida	Maqsad ergash gap
si	Agar, mabodo	Shart ergash gap
Bien que	-sa	To'siqsiz ergash gap

SINTAKSIS (SYNTAXE)

SODDA GAP (PROPOSITION SIMPLE)

Fransuz tilida gaplar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

darak gap: A sept heures et demi des voix d'enfants retantissaient sur le chemin du village.

So'roq gap: Ou avez vous passe vos vacances?

Buyruq gap: Allez! Boring!

GAP BO'LAKLARI (TERMES DE LA PROPOSITION)

Ega (Le sujet)

Ega kesimdan oldin anglashilgan ish-harakatining kimga, nimaga qarashli ekanligini bildiradigan gap bo'lagidiradigan gap bo'lagidir.

Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

Ot bilan: Les etudiants travaillent dans la salle. Talabalar xonada ishlayaptilar.

Olmosh bilan: Je lis le journal. Men gazeta o'qyapman.

Son bilan: Cinq et deux font sept.

Kesim (PREDICAT)

Ega haqidagi hukumni bildirgan gap bo'lagi kesim deyiladi. Kesim gapda egadan keyin keladi: Le pere regarda Paul avec etonnement. Otasi Polga ajablanib qaradi.

Kesimlar ikki guruhga bo'linadi: fe'l kesim va ot kesim.

Fe'l kesim (Predicat verbale)

Fe'l kesim quyidagicha ifodalanadi:

Shaxsli shakldagi fe'llar bilan: L'etudiant lis ce texte. Talaba shu matnни o'qiyapti.

Ot kesim. (Predicat nominal)

Ot kesim sifatga xos belgi yoki xususiyatni ifodalaydi.

Ot kesim bog'lama fe'l va kesimning ot qismidan iborat bo'ladi.

Salim est etudiant. Salim –talaba.

Bog'lama fe'l asosan etre fe'lining shaxsli shakli bilan ifodalanadi. Bundan tashqari devenir, sembler, paretre, demeurer, restter fe'llari ham bog'lama vazifasida ko'p qo'llanadi:

Il est immobile

Il devient

semble

parait immobile

demeure

reste

Attribut (kesimning ot qismi) quyidagicha ifodalanadi:

Ot bilan: Mon frere est medecin- Akam vrach bo'lib ishlaydi.

Sifat bilan: Pierre est serieu – Piyer – jiddiy.

Olmosh bilan: C'est lui. Bu – u.

Son bilan: Il sont dix. Ulat o'nta.

Ravish bilan: Il est tot. Erta.

Fe'ning infinitiv shakli bilan: Vivre s'est lutter. Yashash kurashish demakdir.

GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI (TERMES
SECONDAIRE DELA PROPOSITION)

To'ldiruvchi (complement)

To'ldiruvchi ish-harakatining yo'naltirilgan predmetni ko'rsatuvchi gap bo'lagidir: Piere prend ses livres. Pyer kitoblarni olyapti.

Fransuz tilida o'timli fe'lga aloqador bo'lib, predlogsiz keladigan vositasiz to'ldiruvch va predlog bilan keladigan vositali to'ldiruvchilar mavjud.

Vositasiz va vositali to,ldiruvchilar quyidagicha ifodalanadi:

Ot bilan: je lis le livre. Men kitob o'qyapman.

Olmosh bilan: Je la voix. Elle parle de lui.

Fe'ning infinitiv shakli bilan: J'aime lire. Men o'qishni yaxsh ko'raman.

Hol (complement circonstanciel)

Ish-harakatining qay tarzda bajarilishini, sababini ifodalovchi gap bo'lagi hol deyiladi:

Nous marchons lentement. Biz sekin yuryapmiz.

Hollar qachon? Qanday qilib? Qanday/ qayerda? Kabi co'roqlarning biriga javob bo'ladi.

Fransuz tilida holning quyidagi turlari mavjud:

Payt holi: je fais mes etudes le soir. Men kechqurun o'qiyman.

O'rin holi: Son frere est parti a la campagne. Uning akasi qishloqqa ketdi.

Sabab va maqsad hollari: Il est venu pour vous parlet. U siz bilan gaplashish uchun kelyapti.

Ravish holi: Il parle bas. U sekin gapiradi.

Hol quyidagicha ifodalanadi:

Ravish bilan: Elle marche lentement. U sekin yuradi.

Predlogli va predlogsiz ot bilan; nous irons au bord de la mer. Biz dengiz sohiliga boramiz.

Ravish vazifasidagi sifat bilan: Vous chantez juste. Siz to'g'ri kuylayapsiz.

Aniqllovchi (epithete ou complement determinatif attributif)

Aniqllovchi predmetning belgi va xususiyatini ifodalovchi gap bo'lagidir. U qanday? Qanaqa/ qaysi? Kabi co'roqlarga javob bo'ladi. Aniqllovchi quyidagicha ifoda etiladi:

asliy va nisbiy sifatlar bilan: Une belle ville. Go'zal shahar. Lafabrique textile. To'qimachilik fabrikasi.

2)Sifatdosh bilan: Une lettre recue. Olingan xat. Le travail accompli. Qiulingan ish.

4) Ot, olmosh, infinitiv bilan, ba'zan aniqlanmishga predlog orqali birikadigan ravish bilan: le desir de rire – kulish istagi;

Un journal d'hier. Kechagi gazeta.

QO'SHMA GAP (LA PHRASE COMPLEXE)

Qo'shma gaplar bog'lanish yoki ergashish yo'li bilan birikkan bir necha sodda gapdan iborat bo'ladi. Mazmun va tuzilishiga ko'ra qo'shma gaplar uch turga

bo'linadi: 1) Bog'langan qo'shma gaplar; 2) Bog'lovchsiz bog'langan qo'shma gaplar; 3) Ergash gapli qo'shma gaplar.

Bog'langan qo'shma gaplar (Proposition coordonnees)

Ikki yoki undan ortiq sodda gapdan iborat bo'lgan gaplar bog'langan qo'shma gaplar hisoblanadi.

Sodda gaplar o'zaro teng aloqada bo'ladi va quyidagi bog'lovchilar orqali birikadi:

1) birictiruvchi bog'lovchilar orqali: et, ni: Paul n'apas une mauvaise memoire et il a une bonne diction (P.V Couturier).

2) zidlovchi bog'lovchilar mais, et orqali: il voulait partir pour Moscou mais son pere tomba brusquement malade.

3) Ayiruvchi bog'lovchilar ou, ou bien, soit, tantot orqali: Chaque jour il se promenait dans le jardin ou bien il s'installait dans son cabinet pour travailler.

BOG'LOVCHISIZ BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR (LES PROPOSITION JUXTAPOSEES)

Bu turdagi qo'shma gaplar ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning o'zaro, bog'lovchsiz, biroq ma'nosiga ko'ra birikuvidan iborat bo'ladi.

Bu gaplar quyidagilarni ifoda etadi:

1) bir paytda sodir bo'lgan ish-harakatni: Michel est revenu: les enfants se sont precipites vers lui. Mishel qaytdi: bolalar unga tomon intilishdi.

2) Ketma-ketlikni: Andre a apporte des billets, les enfants vont au cinema.

3) Qarama-qarsilikni: Il aurait fallu une corde, Jean Valjean n'en avait pas. (V.Hugo).

4) Ish-harakat va uning natijasini: Le train est arrive, les voyageurs descendent.

ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR (PROPOSITION SUBORDONNEE)

Bu turdagi qo'shma gaplar biri bosh, qolganlari ergash gapdan iborat bo'lgan ikki yoki bir neca gapdan hosil bo'ladi. Ergash gap bosh gapga ergashtiruvchi bog'lovchilar orqali birikadi.

Ergash gaplar anglatgan mazmuni va bosh gapga bog'lanish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: to'ldiruvchi va aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap, hol ergash gapli qo'shma gap.

TO'LDIRUVCHI ERGASH GAP (PROPOSITION COMPLETIVE)

1) To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga ko'pincha que bog'lovchisi orqali bog'lanadi: Je vois que vous m'avez compris.

que bog'lovchisi odatda to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapning bir turi o'zlashtirma gapni bog'laydi: On disait qu'il y avait des champignons.

2) ergash gap bosh gapga si bog'lovchisi, lequel, qui, laquelle olmoshlari, ce qui, ce que olmoshli oborotlari, ou, quand, pourquoi, comment, combien so'roq ravishlario, quel so'roq sifati orqali bog'lanadi. Bunda ergash gap o'zlashtirma gapdan iborat bo'lmog'i kerak.

Cependant il ignorait quand il reviendrait et combien lui couterait au juste ce voyage. (J.Verne). Je ne sait pas ce qui se trouve au-rez de chausse de cette maison. Il ne savait pas ce qu'il devait expliquer.

To'ldiruvchi ergash gapdagi fe'lning mayli bosh gapdagi fe'l-kesimning ma'nosiga bog'liq bo'ladi.

To'ldiruvchi ergash gapdagi fe'lning zamonda bosh gapdagi fe'l zamoniga bog'liq bo'ladi.

Bosh va ergash gapdagi ega bir-biriga mos kelsa, to'ldiruvchi ergash gapda infinitivli oborot qo'llaniladi: Je vous remercie de m'en donner avis.(A.France). Je vous remercie que vous m'en donnez avis. Elle lui ordonne de se taire. Elle lui ordonne qu'il se tut.

ANIQLOVCHI ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP (SUBORDONNEE RELATIVE)

1) Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap aniqlovchi vazifasida kelib, bosh gapga nisbiy olnoshlar qui, que, quoi, dont, lequel orqali bog'lanadi:

Ma niece ouvrit la porte qui donne sur le petit escalier. (Vercors).

2) Aniqlovchi ergash gap ou (qayerga? Qayerda?) ravishi yoki d'ou (qayerdan?) ravish orqali bosh gapga bo'lanadi: Dans la chambre, ou nous travaillons il ya a peu de meuble. Biz ishlaydigan xonada mebellar kam.

HOL ERGASH GAPLAR (PROPOSITION SUBORDONNEES CIRCONSTANCIELLES)

Hol ergash gap ish-harakat qay tarzda sodir bo'lishini aniqlaydi. Hol ergash gap bosh gapga bog'lovchi va bog'lovchili oborotlar orqali bog'lanadi. Ular o'rtasidagi munosabatni ham anglatadi. Ana shu munosabatga ko'ra hol ergash gap ma'lum guruhlarga bo'linadi: payt ergash gap, o'rin ergash gap, sabab ergash gap, natija ergash gap, maqsad ergash gap, o'xshatish ergash gap, shart ergash gap, ravish ergash gap, to'siqsiz ergash gap.

Hol ergash gaplarning ma'nosi turlicha bo'lishiga qaramay, bir xil bog'lovchi bilan bog'lanishi mumkin. Masalan: comme bog'lovchisi payt, sabab va o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarni bog'laydi. Tout que bog,lovchisi payt va natija ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi.

O'RIN ERGASH GAP (PROPOSITION SUBORDONNEE CIRCONSTANCIELLE DE LIEU)

O'rin ergash gap, ou, d'ou bog'lovchilari orqali bosh gapga bog'lanadi: Il va ou il veut. Je serai bientot a Moscou, d,ou je partirait pour Samara.

PAYT ERGASH GAP 9SUBORDONNEE CIRCONSTANCIELLE DE TEMPS)

Payt ergash gap bosh gapga payt bildiradigan bog'lovchilar yoki bog'lovchili oborotlar orqali bog'lanadi. Bu bog'lovchilar bosh gapdagi ish-harakat ergash gapdagi ish-harakatga nisbatan mosligini bildiradi: bir paytda sodir bo'lganlikni, oldin bo'lin o'tgan voqeani, keyin yuz berish lozim bo'lgan voqeani anglatadi.

Bir paytda sodir bo'ladigan ish-harakani ifodalovchi payt ergash gapni quyidagi konstruksiyalar bilan almashtirish mumkin:

1) Agar bosh va ergash gapning kesimi bir xil bo'lsa, ergash gapda quand, lorsque, comme bog'lovchilari ishlatiladi: Lorsqu'il faisait noir je rentrais enfin. (A. Fournier). Qorong'i tushganda, nihoyat men qaytdim.

Voqealarning bir vaqtda sodir bo'lganini ifodalaydi:

Pendant que

Tandis que -ganida

Alors que

Chaque fois que – har safar: Chaque fois que sa mere se levait, elle se levait aussi. Har safar onasi turganda, u ham turadi.

Au moment ou – o'shanda, o'sh onda: Au moment ou il traversait une large avenue, il a vu son ami.

Depuis que (beri,buyon): Deput qu'elle est entree a l'institut elle voit rarement ses amis.

SABAB ERGASH GAP (SUBORDONNEE CIRCONSTANCIELLE DE CAUSE)

Sabab ergash gap bosh gapga quyidagi bog'lovchilar orqali bog'lanadi:

Comme

Parce que -ligi uchun, shu sababli, tufayli.

Puis que

Comme bog'lovchisi orqali bog'langan ergash gap doim bosh gapdan oldin keladi: comme il estfatigue, il se repose. Charchagani uchun, u dam olyapti.

Parce que bog'lovchisi sabab ergash gap odatda bosh gapdan keyin keladi: il etudie le francais, parce qu'il a besoin de cette langue.

Puisque bog'lovchili ergash gap bosh gapdan oldin ham, keyin ham keladi: Il garde le lit puisqu'il est malade. Kasal bo'lgani uchun u o'rnida yotibdi.

NATIJA ERGASH GAP(Proposition subordonnee de consequence)

Natija ergash gap bosh gapga quyidagi bog'lovchili birikmalar orqali bog'lanadi:

De maniere

De facon que (shunday qilib, -ni)

De sorte que

Il agit de facon que que tout le monde est content. Il y avait beaucoup plu depuis un mois, de sorte que la riviere debordait et couvrait les pres d'alentour. (Musset).

Natija ergash gap sans que (-sin uchun) bog'lovchisi orqali bog'lanadi.

Sans que bog'lovchisi orqali bog'langanapning kesimi har doimSubjonctif da bo'ladi; Elle le fera, sans que vous le lui demandiez.

MAQSAD ERGASH GAP (Proposition subordonnee de but)

Maqsad ergash gap bosh gapga pour que, afin que bog'lovchili oborotlari orqali bog'lanadi: Les rideaux sont tires a demi pour que la lumiere trop vive du jour ne me fatigue pas (J. Coignet). Afin qu,on lui sourit, il souriait lui-meme (J. Green).

O'XSHATISH ERGASH GAP (Proposition subordonnee de comparaison)

O'xshatish ergash gap bosh gapga quyidagicha bog'lanadi:

1) comme (-day,- dek) bog'lovchisi orqali: Il a agi comme l'aurait fait tout honnete homme a sa place.

2) Ish-harakat amalga oshmaydigan bo'lsa, comme si bog'lovchili iborasi qo'llanadi: Il s'oriente dans cette region lointaine comme s'il en etait originaire.

Quyidagi bog'lovchili iboralar bilan:

Ainsi que

De meme que (singari, kabi)

Tant que

Autant que (naqadar, qanchalik)

Il (le nuage se developpa en large ainsi que nos orages du Nord. (Maupassant).

3) Bosh gapdagi ravishga mos keladigan que bog'lovchisi bilan:

Aussi ...que – o'shancha

Plus ... que – nisbatan, qaraganda

D'autant plus ...que – ko'p

Moins ...que - kam

ADABIYOTLAR

- 1.Потушанская Л.Л. и др. Начальный курс французского языка. Основной курс. М.: 2008
- 2.Учебник французского языка “Campus 1. Methode de Francais” М.: 2011
- 3.Учебное пособие “Grammaire Progressive du Francais avec 600 exercices” М.2012.
- 4.Учебное пособие по французскому языку “Exercices audio de grammaire” М.: 2011
- 5.Адаптированная книга для изучения французского языка “La fugue de Bach /Фуга Баха” М.: 2011
- 6.Справочник французского языка “Grammaire francaise” М.: 2011
- 7.Аудиокурсы французского языка: М.2013
- 8.Аудиоматериалы к учебнику французского языка “Campus 1. Methode de francais” www.fr.ru М.2013
- 9.Аудиокурс к учебнику “Campus 2. Methode de francais” ” www.fr.ru
- 10.Аудиоматериалы к курсу французского языка “Alter Ego 1. Methode de francais” ” www.fr.ru М.2013
- 11.М.А.Карыева. Fransuz tili grammatikasi. (Ma'lumotnoma). Т. 1977
- 12.L.E.Malina,L.P. Andreychikova va b. Fransuz tili grammatikasi. Т.: 1978

MUNDARIJA

1.So'z boshi	3
2.Kirish	4-5
3. Morfologiya	6- 88
4.Sintaksis	89-98

Ушбу қўлланма “Зиёкор садаси” газетаси таҳририясида таҳрирдан ўтказилиб, 2022 йил 17 январь куни босишга рухсат этилди. Адади 50.

